

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

DO'STMUXAMEDOVA GULXAYO DO'STMUXAMEDOVNA

**MAHALLIY USLUBLARGA XOS MUSIQALARNI TINGLASH
VA TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY
QADRIYATLARGA ONGLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH
(7-SINF MATERIALLARI ASOSIDA)**

**Musiqiy ta'lim bo'yicha magistr
darajasini olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.
"Musiqqa o'qitish metodikasi va
xalq cholg'u asboblari" kafedra mudiri
E.K.Djalilov _____

Ilmiy rahbar:
dots. I. Qudratov _____

SAMARQAND -2013.

M

Musiq a badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti « Musiq a o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedras i majlisining 10-bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Samarqand
2013 yil 31-may.

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 14 nafari

Majlis raisi: E.K.Djalilov
Kotiba: N.Qurbonova

KUN TARTIBI

«Musiq a o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasida 2012 – 2013 – o'quv yilida bajarilgan dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida

SO'ZGA CHIQDI : kafedra mudiri E.K.Djalilov o'z so'zida quyidagi fikrlarni:

2011-2012 o'quv yili Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi magistranti Do'stmuxamedova Gulxayoning «Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish (7-sinf materiallari asosida)» mavzusida dissertatsiya ishi bajarilgan . Ilmiy rahbari dots.I.Qudratov.

Magistrant mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ijobiy taqrizlar va ilmiy rahbarning mulohazalari mavjud. Shuning uchun so'zni **Do'stmuxamedova Gulxayoga** bersakda u o'zining dissertatsiya ishining mazmuni bilan tanishtirsa, marhamat.

Do'stmuxamedova Gulxayo dissertatsiya ishining mazmun – mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib o'tdi.

Muhokamada magistrantga prof.A.Ergashev va dos.F.Obidovlar savollar berishdi: Do'stmuxamedova Gulxayo berilgan savollarga javob berdi.

Do'stmuxamedova Gulxayoning ma'ruzasi va savol – javoblardan so'ng mazkur dissertatsiya ishini Yak.DAK da himoyaga tavsiya etish taklif bildirildi va taklif bir ovozdan ma'qullandi.

Ushbu masala yuzasidan kafedra yig'ilishi QAROR QILDI:

1 «Musiq a o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedras i Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi magistrant. Do'stmuxamedova Gulxayoning «Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish (7-sinf materiallari asosida) mavzusida dissertatsiya ishi uni bajarish bo'yicha «nizom» talablariga javob beradi deb hisoblansin va dissertatsiya ishi Yak.DAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Do'stmuxamedova Gulxayoning ushbu dissertatsiya ishiga Musiq a o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari kafedras i dotsenti R. Hamroqulov taqrizchi deb belgilansin.

Majlis raisi:

E.K.Djalilov

Kotiba:

N.Qurbonova

MUNDARIJA:

Kirish.	4-10
I-BOB. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati	
1.1. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya vositasi sifatida	11-20
1.2. Xalq musiqa ijodiyotining mahalliy uslublar sifatidagi tadriji va musiqa ta'limida ularni tadbiq yetish muammolari.	21-30
Birinci bob bo'yicha xulosalar.	
II-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.	
2.1. Mahalliy uslublar bo'yicha o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan o'quv materiallar mazmuni.	31-44
2.2. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish shakl va usuli	45-59
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.	
III-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalar vositasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligi.	
3.1. Mahalliy uslublarga xos musiqalar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar.	60-65
3.2. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllanganlik darajasini matematik-statistik taqsim.	66-73
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	74-76 77-79

**Mavzu: Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil qilish
orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish
(7-sinf materiallari asosida)**

R E J A:

Kirish.

I-BOB. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.

1.1. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya vositasi sifatida

1.2. O'zbek xalq musiqa ijodiyotining mahalliy uslublar sifatidagi tadriji va musiqa ta'limida ularni tadbiq yetish muammolari.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.

II-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.

2.1. Mahalliy uslublar bo'yicha o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan o'quv materiallar mazmuni.

2.2. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish shakl va usuli

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.

III-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalar vositasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligi.

3.1. Mahalliy uslublarga xos musiqalar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar.

3.2. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllanganlik darajasini matematik-statistik taqsim.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.

Umumiy xulosalar va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan milliy ta'limni yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, shu asosda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish bosh vazifa qilib qo'yildi. Bu esa o'z navbatida kelajagi buyuk mustaqil davlatimizning kelajagini yaratuvchilari bo'lmish yosh avlodni ta'lim va tarbiyada o'z ifodasini topmog'i, ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk barkamol avlodni yetishtirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmog'ini nazarda tutardi.

I.Karimovning O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lining istiqbolini belgilashga oid asarlarida Milliy istiqbol mafkurasi xalqimizning milliy qadriyatlariga hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishini alohida ta'kidlashdi. "O'zbekistonning yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

1. Umuminsoniy va milliy qadriyatarga sodiqlik;
2. Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
3. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
4. Vatanparvarlik;

Mustaqillik O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir".¹

Haqiqatdan ham ona vatanni sevish, uni ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usi – muqaddas tuyg'udir. Milliy qadriyatlarning g'oyaviy-estetik ifodasi bir qator badiiy qadriyatlarda, jumladan, xalq musiqa merosi, afsona va dostonlarda mujassamlashgan. Bu esa milliy ta'lim-tarbiya tizimini milliy madaniyat, ya'ni milliy qadriyatlar zamirida shakllantirish har jihatdan to'g'ri yekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham milliy-madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan g'oyalarni jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi ahamiyatiga yuqori baho berar ekan. Prezidentimiz I.Karimov:

¹ I.Karimov, "O'zbekiston buyuk kelajak sari", Toshkent-2001 ...

“Bu xazina insonga hayotda barqarorlikni ta’minlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo’lida kun ko’rishga yo’l qo’ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi”.²

Shuning uchun ham barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari yoshlarda milliy-musiqiy qadriyatlarni teran anglash, sevish, qadrlash, o’rganish, rivojlantirish uni himoya qilish kabilarni shakllantirishni ham ko’zda tutadi. Buning uchun esa ta’limning boshlang’ich bo’g’inaridan yosh avlod ma’naviyatiga, madaniyatiga, ongiga milliy musiqiy meros namunalarini singdirib borish, shu orqali ularda milliy ong, milliy mafkura, milliy madaniyatni shakllantirish talab yetiladi. O’sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy, ya’ni milliy g’oya va mafkura ruhida tarbiyalash vazifalari mazmunida ham bu jihatlar ustuvor o’rin tutadi. Xo’sh, ushbu vazifalarni amalga oshirishda barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizga, ya’ni tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, san’atimizga nisbatan ongli munosabatni tarkib topishiga olib keladi. Milliy qadriyatlarga munosabat esa uni yanada rivojlantirish, kelgusi avlodlarga yetkazish, asrlar davomida shakllanib kelgan xalq musiga merosiga vorislik qilish tuyg’usini vujudga keltiradi. Bu esa musiqa ta’limi, pedagogikasi oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Muammoning o’rganilganlik darajasi.

O’zbek milliy merosi tadrijiy rivojini o’rganish shuni ko’rsatadiki, hozirgi O’zbekiston sarhadida yashovchi xalqlar musiqa san’atida bir-biriga o’xshash, shu bilan bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlar (ijrochilik yo’llari, aytimlari, usullari, ovoz talaffuzi (sheva), raqs harakatlari, liboslari) bilan farqlanuvchi asosiy to’rt uslub shakllanib kelganligini ko’rsatadi. Mazkur to’rtta uslub – Xorazm, Samarqand-Buxoro, Farg’ona-Toshkent, Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslublari nomi bilan yuritiladi. Bularning har birining nomlari qayd etilgan vohada yashab kelgan xalqlar milliy musiqa merosi ildizlari bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ularda o’sha voha xalqlarning turmush tarzi, urf-

² I.Karimov. “Milliy istiqlol g’oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar”. T;-O’zbekiston-2000 yil, 43-bet.

odatlari, tili(shevasi), kiyinishi, cholg'u sozlari, raqslari hamda etnomixolik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Shu bois ham tanlagan muammoni pedagogik fanlar tizimida o'rganilishi, ulardan ta'lim-tarbiya sohasida foydalanish yuzasidan amalga oshirilgan izlanishlarni o'rganish, tahlil qilish aynan o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublariga bevosita bog'langan tadqiqotlar qilinmaganligini ko'rsatdi. Xalq musiqa merosi, uning o'quvchi-yoshlar tarbiyasiga tadbiiq etish borasida muayyan tadqiqotlar amalga oshirishgan. Jumladan, H.Nurmatov, A.Sh.Hasanov, I.Qudratov, D.Djalolov, O.A.Vasilenko, S.K.Annamuratova, I.I.Toliboyev, G'.Najmitdinovlarning ishlari xalq musiqasi orqali axloqiy estetik tarbiyalash masalasi tadqiq etilgan. San'astunos olimlardan O.Ibrohimov, F.Karomatov, T.G'ofurbekov, S.Begmatov, R.Abdullayev, O.Matyoqubov kabi olimlarning tadqiqotlarida xalq musiqa merosining nazariy jihatlari o'rganilgan. O.Aleyeva, S. Romanova, S Adashboyev kabi olimlarning dissertasiya ishlari qoraqalpoq xalq musiqa an'analarini va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bag'ishlangan bo'lsa, N.Toshtemirovning ilmiy ishi Jizzax vohasi xalq qo'shiqchiligi, M.B. Xudoynazarovning dissertasiya ishi hozirgi musiqa folklori vositasida o'quvchilarning estetik tarbiyasi, E.M. Fayzullayevning nomzodlik dissertasiyasi esa o'zbek mumtoz qo'shiqchilik san'ati vositasida talaba yoshlarning badiiy didini shakllantirish muammosini yechimiga qaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning ilmiy qimmatini qayd etgan holda aytish mumkinki, o'zbek musiqasining mahalliy uslublariga xos namunalarni tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish maxsus tadqiq qilinmagan. Shundan kelib chiqib mazkur tadqiqot mavzusi "Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish (7 sinf materiallari asosida)" deb nomladik.

Dissertasiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Mazkur dissertasiya ishida ilm, fan taraqqiyoti yo'lida belgilangan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mos holda, maktab ta'limini

rivojlantirish umummilliy dasturi, O'zbekiston PFITI ning X.T. F2 003 "Umummilliy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari va strategiyasini belgilash" ilmiy laboratoriyasining tadqiqot ishlari hamda A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universitetining ilmiy-pedagogik tadqiqotlar rejasiga mosdir.

Tadqiqot maqsadi.

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida maalliy uslublarga xos musiqa namunalari orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqdi.

Tadqiqot obyekti.

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida mahalliy musiqiy uslubiga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti.

Mahalliy musiqiy uslublarga xos asarlar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish mazmuni va o'quv-tarbiya faoliyati.

Tadqiqot vazifalari:

1.Mavzuga oid ilmiy, uslubiy manbalarni, musiqa ta'limiga oid dasturlar, me'yoriy xujjatlar, estetik tarbiyaga oid ilmiy tadqiqotlarni o'rganish:

2.Umumta'lim maktablari musiqa darslarini o'qitish holati, o'quvchilarni mahalliy musiqiy uslublarni o'rganishga oid o'quv faoliyatlarini o'rganish, tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash:Musiqa darslarida xalq musiqa merosi bilan o'quvchilarni izchil, tarbiyaviy maqsadlarda tanishtirib borish bo'yicha tajribalarni o'rganish:

3.Musiqa darslarida mahalliy musiqiy uslublarga xos namunalarni o'rganish jarayobida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash;

4. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishning o'ziga xos shakl, usul, vositalarini belgilash;

5. Mahalliy uslublarga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot metodlari

Mavzuga oid manbalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash, savol-javob, anketa-so'rov, kuzatish, taqqoslash, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil orqali olingan natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqotning metodlik asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Prezident I. Karimovning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari, ma'ruzalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ta'lim Vazirliklarining Xalq ta'limini rivojlantirishga oid buyruqlari, farmonlari, maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi, umumiy o'rta ta'limning musiqa fani bo'yicha Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, shuningdek, pedagogik-psixologiyasi, estetik va san'atshunoslik manbalari hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotni bajarish davomida erishgan natijalardan umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin:

-Mahalliy uslublarga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish, shu orqali ularni milliy g'oya, milliy mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlari ochib berildi.

-Mahalliy musiqa uslublariga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, shakl, usul vositalari aniqlandi.

-Mahalliy uslublarga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatga ongli munosabatni shakllantirish yuzasidan tavsiyalarni chiqildi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar.

1. Mahalliy uslublarga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

2. Mahalliy uslublarga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishni ta'minlovchi shakl, metod va vositalar;

3. Mahalliy uslublarga xos musiqa orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatlarni shakllanganlik mezonlari;

4. Mahalliy uslublarga xos musiqa vositasida milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishga oid tavsiyalar;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

-Mahalliy musiqa uslublariga xos asarlarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongi munosabatni shakllantirishning ilk bor, mustaqil tadqiqot ishi sifatida o'rganildi;

-Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish mazmuni, metodi yaratildi;

-Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish yuzasidan ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqildi;

Ishning sinovdan o'tishi.

Tadqiqot natijalari Samarqand Davlat Universiteti, Jizzax Pedagogika Instituti professor-o'qituvchilar va talabalar an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlarida sinovdan o'tdi. Tadqiqot yuzasidan olib borilgan tajriba- sinov ishlari Samarqand shahridagi 20, 34-umumta'lim maktablarida o'tkazildi.

Natijalarning e'lon qilinganligi.

Tadqiqotning asosiy mazmuni e'lon qilingan- ilmiy maqola, ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda o'z ifodasini topgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya kirish, uch bob, 6 ta paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 78 sahifadan iborat.

I BOB: Xalq musiqa amaliyotining ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.

1.1. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim-tarbiya vositasi sifatida.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi sharofati bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar natijasida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, xalq ma'naviy hayotiga chuqur olib kirish, ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishning keng imkoniyatlari yaratildi. Hozirgi kunda jamiyatni va uni rivojlanishining ilmiy asosini belgilovchi ilm-fan, ta'limni jahon standartlari darajasida taraqqiy ettirish vazifalari bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda uzluksiz ta'lim tizimida barkamol avlod tarbiyasiga milliy, tarixiy tajribalar asosida yondashish asosiy vazifa sanaladi. Chunki yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida amalga oshirilishi bevosita davlatimizning hozirgi avlodga buyuk kelajak yaratish yo'lidagi g'amxo'rliги va e'tiborining namunasidir.

Darhaqiqat, barkamol avlodni shakllantirishdek ulug' va sharafli vazifani izchillik bilan davom etayotgan hozirgi davrda ta'limning eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lgan umumiy o'rta ta'limga e'tibor dolzarb vazifalardan bo'lib qoldi. I.A. Karimov Oliy Majlisning 1997 yilda bo'lib o'tgan IX-sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli tarixiy nutqidagi fikrlarni bildirgan edi: "Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Ularning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak?... Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?"³

³ I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: - Sharq, 1997. – 7-8b

Ushbu fikrlar umumiy o'rta ta'limga, qolaversa butun ta'lim-tarbiya tizimiga qo'yilgan davlat buyurtmasining yaqqol ifodasidir. Yoshlar ta'lim-tarbiyasida milliy – ma'naviy g'oyalarning aks etishi xalqimiz asriy orzularining amalga oshishi in'ikosi hisoblanadi. Ma'naviyatga intilish ong va tafakkur egasi bo'lgan insonga xos fazilat bo'lib, u insonning ruhiy va aqliy olamining ifodasidir. Shuningdek, ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati va idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchalar majmui hisoblanadi.

Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy merosimizni yetarli darajada o'rganish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Xalqimizning milliy-ma'naviy merosida xalq musiqa ijodiyoti, ya'ni milliy musiqiy qadriyatlarimiz juda ulkan bir xazinadir. Milliy-madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan g'oyalarning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi ahamiyatiga yuqori baho berar ekan Prezidentimiz I.Karimov: “Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi” – degan edi.⁴

O'zbek xalqining boy musiqiy merosi xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etno-psixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari, orzu-intilishlari hamda uni amalga oshirish yo'lida tashkil etiladigan faoliyat yo'nalishlari, shaxsga ta'lim-tarbiya berish an'analari asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida tarixiylik, vorisiylik tamoyillariga muvofiq avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. An'analarga sodiqlik tufayli yoshlarda ma'naviy javobgarlik hissi, Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, axloq-odob kabi fazilatlar qaror topib boradi.

Xalq musiqa ijodiyotining mazmuni, janrlari, an'analari chuqur o'rganish, ularning g'oyaviy-badiiy mazmuni, tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yoshlarni milliy ongini,

⁴ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: - O'zbekiston, 2000.-43 bet.

tafakkurini, milliy o'zligini anglashlarida, ularni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda benazir ahamiyat kasb etadi. Xalq ma'naviy boyligining ko'zgusi bo'lgan xalq musiqa merosi, uning eng ommaviy va sermahsul janri bo'lgan xalq qo'shiqlarining sarchashmalari eng qadimiy bo'lib, unda xalq hayotining muhim bosqichlarining aks sadosi o'z ifodasini topganligi bilan ham qimmatlidir. Har bir xalqning og'zaki ijodini o'rganish shuni ko'rsatdiki, musiqa san'atining har bir turi u folklor yoki ustozona (kasbiy) musiqa bo'ladimi, qat'iy nazar inson ongining rivojlanishiga hissiy ta'mir sifatida o'zini anglash unumidan, tabiat unumidan, tabiat va hayot go'zalliklaridan ilhomlangan shaxsning ijod mahsulidir.

Xalq og'zaki musiqa ijodi, xususan folklor qo'shiqlaridan bahra olib, ezgu niyatlar sari intilib yashagan ajdodlarimizning asrlar davomida to'plagan boy ma'naviy merosining bizga yetib kelishida muhim vosita bo'lganidek, ular hozirgi kunda ham o'zining badiiy qimmatini yo'qotmasdan kelayotganligining boisi ularda yuksak insoniy g'oyalarning o'z ifodasini topganligidir. Shuning uchun ham xozirga qadar xalqning bu boy xazinasini pedagog, psixolog, folklorshunos, san'ashunoslar tomonidan to'planib, notaga olinib nashr etilgan, tarbiyaviy imkoniyatlari tadqiq qilib kelinmoqda. Xalqimiz o'zining barcha ezgu niyatlarini beshikda orom olayotgan chaqaloqqa ham, ajib bir entikish bilan yangi uyga qadam qo'yayotgan kelin-kuyovga ham go'zal qo'shiqlari bilan baxt tilagan. Ming yillardan beri shunday dirlabo kuy, qo'shiqlar xalqning mehnatiga ham, rohatiga ham singib ketgan. O'zbek xalq musiqa ijodiyotining mavjud va janr doirasi shu darajada rangbarangki, hozirgacha necha-necha to'plamlar, majmualar nashr etilganiga qaramasdan, xalq ijodining boy hazinasini hanuz qaynar buloq bo'lib yangi-yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda, ularning ne-ne javohirlari dunyo yuzini ko'rgani yo'q. Buning ustiga madaniy merosimizga turli davrlarda noto'g'ri munosabat, tazyiq ko'rsatish, kamsitishlar, loqayd qarashlar bo'ldiki, oqibatda uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazildi, u xalq ma'naviy hayotidan bir qadar uzoqlashib qoldi.

Madaniy merosga har bir avlodning o'z munosabati bo'ladi. Bu munosabat yaxshi bo'lsa, xalq ijodi ham uning har janri, ya'ni maqol, yertak, doston, qo'shiqlari, ayimlari hayotiylik kasb etib yashnayveradi. Qo'shiqlari, milliy urf-odat, an'analari yashab turgan yurtning farzandlari, demak hayoti, tarixi ham yashayveradi, yurti obod, xalqining ma'naviyati yuksak bo'ladi.

Har bir jamiyatning o'z madaniyati va ma'naviy omillari mavjud bo'lganidek, mustaqil jamiyatimizni ham milliy-ma'naviy omillari sirasida xalq musiqa merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan xalqimizning o'tmish ma'naviy merosini o'rganish, shu asosda milliy mafkurani yaratish, ularda vatanparvarlik, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni sevish va qadrlash tuyg'usini kamol toptirish alohida e'tiborni talab qiladi. Zero, ona vatanni sevish, uni ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usi – bu insoniyat tarixi kabi qadimiy, muqaddas tuyg'udir. Bu qadimiylikning g'oyaviy-badiiy ifodasi bir qator badiiy qadriyatlarda, jumladan, xalq qo'shiqlari, afsona va dostonlarida o'zining o'chmas muhrini qoldirgan. Bu ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini milliy madaniyat zamirida shakllantirish borasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarimizning to'g'riligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifasi jamiyat uchun nafaqat bilimli yoshlarni, balki, shu bilan birga ma'naviy va barkamol avlodni yetishtirishdan iborat. Bu mas'uliyatli maqsadni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar bilan bir qatorda o'quvchi-yoshlarni insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlardan, madaniyat va san'at asarlaridan imkon qadar keng bahramand etib borish lozim. Ulug' ajdodlarimizning milliy musiqiy merosidan, ularda ilgari surilgan g'oyalar, pedagogik fikr va qarashlarni bugungi ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish birinchidan ta'lim mazmunini boyitadi, ikkinchidan ta'limning milliy negizi mustahkamlanadi.

Xalq musiqa merosida o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra xalqning urf-odat va an'analari bilan hamda mehnat jarayoni ochlik ayimlar, cholg'u kuylari yetakchi o'rin tutadi. Bunga misol qilib Surxondaryo-Qashqadaryo

mahalliy uslubiga tegishli “Shoh moylar”, “Qo’ylarni ko’chirish”, “Qo’ylarni to’plash”, uchun aytimlari, Buxoro-Samarqand mahalliy uslubidagi to’y-marosimlari bilan bog’liq aytilar (sozandachilik san’ati), Xorazm viloyatida keng yoyilgan xalfachilik (xalfalar ko’proq to’y-marosimlar, diniy marosimlarda marosimga xos aytimlarni aytib kuylashgan)ni, shuningdek, turli bayram (gap-gashtak, xalq sayillari)larda aytiladigan namunalarni misol qilib keltirish mumkin. Ularda tabiiyki o’sha vohalarda yashovchi xalqning ijtimoiy-madaniy va etnik turmush tarsi, tarixi, urf-odatlarining kelib chiqishi, ma’lum bir marosim bilan bog’liqligi o’z aksini topadi. Ta’kidlab o’tilgan qo’shiqlar, laparlar, yalla, alla, katta ashula, diniy mazmundagi motam aytimlari, mehnat – fasl qo’shiqlari, marsiya, doston qo’shiqlari orqali o’sha voha xalqining hayotiy falsafasi, lozim bo’lsa pedagogik ahamiyatga molik qarashlarini ham bilib olish mumkin. Shuning uchun ham o’zbek xalqining musiqiy ijrochilik uslublari, an’analarning musiqiy-pedagogik xususiyatlarini muayyan janrlarga mansub aytilar, cholg’u kuylarning amaliy-musiqiy uslublari, musiqiy-ma’rifiy faoliyatini o’rganmay turib, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu sababli biz o’zimizning mazkur tadqiqotimizda milliy-musiqiy uslublar, ularga xos aytilarning tarbiyaviylik xususiyatlarini tahlil qilish, ulardan pedagogik maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilishga harakat qildik.

Uzoq o’tmishda sinkretik san’atning namunasi bo’lgan qo’shiqlar, uni yaratuvchilar va ijro yetuvchilar mehnat faoliyati – ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlari xalq amaliy san’ati – kulolchilik, o’ymakorlik va boshqa san’atlar bilan bevosita aloqada bo’lib, ayni chog’da mehnatkash ommaning qadimiy urf-odatlari, xilma-xil marosimlari va e’tiqodlari negizida yashab kelgan.

Zamonlar o’tishi, davrlar almashishi natijasida xalqlarning chegaralanishi, ya’ni ma’lum hududlarga bo’linib yashash ko’proq va qat’iyroq tus olishi bilan har bir urug’, qabilaning, xalqning urf-odatlari, turmush tarsi o’ziga xos san’atlarni ham vujudga keltirgan. Bu borada yana bir muhim jihat shundan

iboratki, nafaqat xalq, balki har bir shahar, tuman, vohaning o'ziga xosligi bo'lib, bu narsa musiqa san'atiga ham o'zining ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, ommaviy janrlari bunga misoldir.

Faylasuf, pedagog va psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarida milliy xalq musiqasining yosh avlodning madaniy-ma'rifiy, badiiy-yestetik tarbiyalashdagi ahamiyati katta ekanligi asoslab berilgan. Ularning ilmiy izlanishlari xulosalariga ko'ra shaxsning kamol topishi, uning dunyoqarashi, axloqiy madaniyati, badiiy-estetik didi, ichki olami, ma'naviy kamolotini tarkib toptirishda musiqa san'ati eng ta'sirchan va ahamiyatga molik vositasidir.

Milliy-axloqiy fazilatlarni yoshlar ongiga singdirish uchun, eng avvalo, ularni xalq musiqasi mazmuniga singdirilgan g'oyaviy fikrlar, qarashlar, tasavvurlar, orzu-umid, intilishlar, qanday urf-odat, marosim, tadbirlar bilan bog'liqligi, qanday tarzda, uslubda ijro yetilishi haqidagi tushunchalar muhim o'rin tutadi. Bu o'z navbatida xalq pedagogikasining asosiy didaktik tamoyillariga uyg'unligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanidan ma'lumki xalq pedagogikasi asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik tarbiyalashda quyidagi uch asosiy tamoyilga asoslanishi mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodi asosida ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik tushunchalarni shakllantirish;
2. Ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik ko'nikmalar;
3. Ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik malakalar;

Xalq musiqa folklori asosida o'quvchilarda xalq musiqa merosiga, u orqali milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish deganda eng avvalo ularda insoniy fazilatlar, axloqiy ko'nikmalar, madaniy qiyofani ifoda yetuvchi yaxshilik, oq ko'ngillilik, burch, mehnasevarlik, xayrihohlik, vatanparvarlik, qahramonlik, yaxshi-yomon kunlarga befarq bo'lmaslik, ezgu maqsadlar yo'lida kurashuvchanlik, xalq milliy boyligini qadrlash, o'rganish, davom yettirish kabilar tushuniladi.

O'quvchilarga hayotdagi yaxshi odamlar, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ularda ijro yetilgan badiiy obrazlar, musiqiy aytimlar, raqs-o'yinlar mazmunida ifoda etilgan g'oyalar yaxshi ibrat namunasi bo'ladi.

Milliy xalq og'zaki ijodi (badiiy adabiyot, xalq musiqa folklori)dagi she'riy matnlarda ilgari surilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan da'vatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar xalqning asrab orttirgan tajribasi jarayonida sayqal topib kelgan hayotiy xulosalar mahsulidir.

Musiqa shunday hayotbaxsh ta'sir kuchiga egaki, uning mazmunida aksyetgan badiiy-g'oyaviy tushunchalarni anglash, tushunish, hayotda kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik xolatlarga taqqoslab ko'rish natijasida ularda voqelikka, xalq urf-odatlariga, odatlarga ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

Aniq rejalar va tizimli yo'lga qo'yilgan va musiqa darslarida o'tkaziladigan milliy xalq musiqasi mashg'ulotlari va umumiy musiqiy ta'im o'quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabat va umumiy musiqiy madaniyatini shakllanishining muhim omilidir.

Xalq og'zaki musiqa ijodiyotida mahalliy uslublarga xos aytimlarning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishida ahamiyati juda kattadir. Psixologik olimlarning qayd etishlaricha xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar o'zining milliy ohangi va mazmuni bilan inson bosh miyasi joylashgan yarim shardagi asab qoplamasi, asab tomirlari, miya qobig'ining yeng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi.

Xalq og'zaki an'anadagi musiqa ijodiyotida musiqa asarlarining shunday o'ziga tarbiyaviy ta'sirchanlik xususiyatlari borki, bu boshqa hech qanday san'at turlarida mavjud yemas. Bu insonga kuchli ta'sir eta oluvchi "qurollar" zahirasida milliy xalq musiqasi san'atining o'ziga xos kasbiy xususiyatlari, vositalarida tovush tembri, ritmik xilma-xilligi, ijro uslublari, an'analari uning ta'sirchanligini oshiruvchi eng kuchli vositalardandir.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda yangi-yangi ma'naviy ehtiyojlar paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat

qilish esa o'quvchida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilishini, izlanishini taqozo yetadi. Bu faol jarayon yoshlik davridayoq qaror topa boshlaydi.

Pedagogika va psixologiya sohasida tanilgandek musiqa pedagogilashda tanilgan olimlarning fikrlariga tayangan holda qayd yetishimiz mumkinki, xalq musiqa ijodiyoti, xususan bizning tadqiqotimiz mavzusiga tegishli o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublariga mansub asarlari o'quvchilar ma'naviy dunyosini shakllantirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Ona Vatan va unda yashovchi xalqlarga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;
2. O'quvchilarning o'z ona xalqi, uning uchun aziz bo'lgan qadriyatlariga, shu orqali insonga, hamda qarindosh urug', do'stlariga bo'lgan munosabatni;
3. O'quvchi-yoshlarning, o'sib kelayotgan yosh avlodning mehnatga, uning vakillariga, ular tomonidan yaratilgan ne'matlarga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;
4. Mustaqil ta'limni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarni musiqiy madaniyatini uning mazmunida mujassam bo'lgan axloqiy, estetik, g'oyaviy tushunchalarini takomillashtirish;
5. O'quvchilarning individual, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, intilish, mehnasevarlik, tashabbuskorlik mayllarini rivojlantirishdan iborat.

Hozirda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy, ustivor maqsadlardan biri – o'sib kelayotgan yosh avlodga ajdodlarimizning ma'naviyatiga ijod mahsuli bo'lgan madaniy merosini singdirishdan iborat.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishiga ma'naviy qadriyatlar o'zining kuchli ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Mustaqil hayotimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda diniy ta'limot, ya'ni diniy falsafiy qarashlar, g'oya, e'tiqod, pand-nasihath yo'nalishidagi asarlar, shu jumladan, ularning qo'shiq qilib

aytiluvchi namunalarning ham juda katta ahamiyat bor. Diniy madaniyat zamirida odob-axloq, iymon-e'tiqod, halollik, to'g'ri so'zlik, ozoda-orastalik, poklik, insonlarga mehr, tabiat, o'simlik, jonivorlarga mehr-oqibat, vatanparvarlikka yo'g'rilgan fikrlar ustuvor ahamiyat kasbyetadi. Bular o'z navbatida insonning ruhiyyehiyotiy sifatida kuchli ta'sirchanlikka egadir. Diniy ta'limot mazmunida aks etgan insonlarni ma'lum tartib-qoida, axloqiy me'zonlarga asoslangan talablarga tayangan holda yashashga undovchi g'oyalari kishilarni axloqiy madaniyatiga singib berganligi tufayli o'ziga xos falsafiy, ruhiy hayot kechirish me'zonlariga aylangandir. Diniy mafkura va dunyoqarashga tayanib yaratilgan qo'shiqlar, marsiyalar, yig'i-yo'qlovlar, dostonchilik, pand-nasihath qo'shiqlari bizning turli vohalarda yashovchi xalqlarning barchasiga birdek xosdir.

Shuni alohida qayd etish mumkinki, sharqona islomiy mezonlar sanalishi iymon, e'tiqod kabi tushunchalar umuminsoniy va milliy mazmunga ega bo'lib, bu tushunchalarning asosida islomiy e'tiqod madaniyati aks etadi. Islom dini madaniy hilqat sifatida sharq xalqlari uchun, ularning madaniy-ma'naviy takomili uchun o'zining barcha tamoyili va dunyoviy zaruriyati sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, islom dini, unga mansub xalq, elat, millatning madaniyati, xuquqi, axloq odobi ustidan xukmron bo'lgan davrlarda Markaziy Osiyoda Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy diniy mazmundagi she'r va g'azallari qo'shiq qilib ijro etib kelingan va hozirda ham el nazari va ye'tiborida bo'lgan Axmad Yassaviy, A.Jomiy, A.Navoiy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Haziniy, G'afforiy, Salohiy, Boborahim Mashrab kabilar o'z ijodlari bilan kishilarni islomiy mezonlarga xos odob-axloq, yuksak e'tiqod, pok iymonga chorlaganlar. Milliy musiqiy ta'limni shakllantirishda ularning ijodiga mansub namunalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda milliy musiqa merosi haqida keng qamrovli tushunchalar hosil qilishda ularni eng avvalo, o'zi yashab turgan viloyat, tuman, qishloqlarda

yashovchi xalqqa mansub folklor asarlar, mashhur san'atkorlar – baxshilar, o'lanchilar, laparchi-yallachilar, keng ommalashgan aytimlar bilan tanishtirish, ularning ijrochilari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish va o'quvchilarga mustaqil topshiriqlar berib, bobolari-buvalaridan bu haqda ma'lumotlar, namunalarni yozib ommaga qiziqtirish yaxshi samara beradi. Mahalliy uslublarga xos namunalarni o'rganishda ularni qiyosiy tahlil qilish o'quvchilarni xalq ijodiyotiga qiziqishlarini oshiradi, bu esa ularni musiqiy go'zallikka bo'lgan haqiqiy ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutadi. Chunki inson tug'ilganidanoq birinchi musiqachi, kompozitor – ona allasini yeshitadi. Bu milliy ohang, milliy tarbiyaning yeng asosiy vositasi sifatida insonning umri oxiriga qadar o'z kuchi, ahamiyatini yo'qotmaydigan, uning milliy qadriyatini belgilovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy musiqiy asarlarning, jumladan xalq hayotini turli ko'rinishlarini aks ettiruvchi qo'shiq-raqs, aytimlarni ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – uning o'quvchi-yoshlarning ichki kechinma, hissiyotlariga kuchli ta'sir ko'rsatishidir. San'at asarlarini hissiy-emotsional idrok qilish har qanday bilimning asosini tashkil etadi. Xalq badiiy ijodiyotini badiiy idrok yetish, his etish, anglash – ma'naviy estetik madaniyatini shakllantirishning eng muhim omillaridan sanaladi.

Badiiy estetik tarbiya – Sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining ham ming yilliklar ilgari yashagan avlodlarining milliy musiqiy tafakkur mahsullari – mif va afsona, rivoyat, maqol va matal, alla, marosim va mavsum, dostonchilik qo'shiqlarida o'zining badiiy in'ikosini topgan. Shunga asoslanib aytishimiz mumkinki, milliy xalq musiqa ijodiyoti insonni, xususan o'sib kelayotgan yosh avlodni eng oliyjanob insoniy hislatlarni, madaniyatni tarbiyalashning bitmas-tuganmas xazinasini, vositasidir.

1.1. Xalq musiq ijodiyotining mahalliy uslublarga xos janr turlari tavsifi va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish muammolari.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqining ham tafakkuri, diyonati, milliy qadriyatlari, donishmandligini Respublikamiz Prezidenti I.Karimov: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini tiklash, rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish; vatanparvarlikda ko'rgan edi. Shuning uchun ham Istiqlol sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'analarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanish muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, barcha jabhalarda o'z natijalarini bera boshladi.

Sobiq sho'ro davri mafkurasi cheklanishlari ta'sirida imkoniyatlari bo'g'ib qo'yilgan o'zbek musiq merosining Sharq xalqlari an'analari bilan tarixiy aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi va ijodiy hamkorliklar yo'lga qo'yildi. Aynan shu madaniy aloqalar, musiqaning ilohiy ta'sir kuchi va o'zbek xalqining boy musiq merosining ahamiyati va mavqeini, uning Sharq musiqasi bilan mushtarakligini nazarda tutgan O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning "Sharq musiqasining jaxon madaniy merosida tutgan o'rni benihoya buyuk... Bu musiq ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda." – degan so'zlari fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi o'zbek musiq san'atining jahon sahnalarida erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovordir. Xususan, o'zbek folklor musiqasining yangi-zamonaviy qiyofa, xarakter, o'ziga xos betakrorlik kasb etib, xalq ma'naviyatiga shiddat bilan qaytib kelayotgani, butun jahon san'atsevar ahli tomonidan yuksak baholanib, e'tirof etilayotgani, "YUNESCO" tomonidan "Boysun bahori" folklor ansambllari ko'rik tanlovlarini muntazam o'tkazib kelayotgani halq musiqasining o'lmas ilohiy qudratga egaligi, u chinakam xalq dahosining yaratuvchanlik qudratining mahsuli ekanligidan dalolatdir. Shu ma'noda o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarida

o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Allomalarimizdan Abu Nasr Farobiy ta'rif berganidek, musiqa – inson ruhining ozig'idir. Binobarin, milliy musiqa xalqimizning tarixiy taraqqiyoti davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining teran tafakkurining, milliy ruhiyatining yoqimli sadolardagi jonli ifodasi va ayni paytda, yangi mustaqil jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig'idir.

Mustaqillik yillarida xalq musiqa merosini tiklash, unutilib ketgan namunalarni yuzaga chiqarish, ularni xalq madaniy hayotiga olib kirish maqsadida respublika miqyosida ko'plab ko'rik-tanlovlar, musiqiyetnografik ilmiy yekspedisiyalar tashkil etildi. Dastlaki yillardan Mustaqillik va Navro'z bayrami tantanalari xalq musiqa ijodiyoti bo'yicha jamoalar, ijrochilar chiqishlariga ustuvor o'rin ajratildi. Folklor dastalari, oilaviy ansambllar, katta shula, askiya, xalq qiziqchiligi, o'zbek mumtoz va maqom san'atiga oid tanlovlar, maxsus tadbirlarni muntazam o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Chunonchi oilaviy ansambllar, (Qo'qon, Shaxrisabz), Alla ijrochilari (Toshkent 1992, 1994, 1998, 2000, 2004, 2008), Marg'ilon (1996, 2006), to'y-marosom qo'shiqlari ijrochilari (Toshkent 1993, 1995, 2007), folklor-yetnograafik jamoalari "Chashma" tanlovi (Toshkent 1994, 1998, 2002, 2012), baxshi shoirlar (Denov 1991, Narpay 1993, Toshkent 1995, 1997, Termiz 1999, 2005, Xiva 2012-yil), maqom ijrochilari va xalq cholg'ulari ansambllari (Shaxrisabz 1996, Buxoro 2002, Samarqand 2010), Barhayot siymolar (Toshkent 1996, 1997, 1998, Xorazm 2002, 2008, Marg'ilon 2004, Xorazm 2004), M.Uzoqov va Jo'raxon Sultonov nomidagi yosh xonandalar (Marg'ilon 1997, 1999, 2003, 2009), Hoji Abdulaziz Rasulov nomidagi yosh xonandalar Samarqand 1997, 2006), Komiljon Otaniyozov nomidagi yosh xonandalar (Urganch 2001, 2007), Y.Rajabiy nomidagi IV Xalqaro va V Respublika maqom ijrochilari (1995, 1999, 2003, 2007, 2011) va ko'plab telefestivalar shular jumlasidandir.

Turfa mahalliy an'analar va xilma – xil ko'rinishlarni o'z ichiga olgan o'zbek musiqa merosi shi kunga qadar ikki asosiy yo'nalishda rivojlanib, ijod

qilib kelgan bo'lib, biri "Xalq musiqasi yoki folklori", yana biri yesa "Mumtoz kasbiy" yoki "ustozona" deb yuritiladi. Ularning har qaysisi "ko'p va xo'b" badiiy yetuk aytim hamda cholg'u namunalaridan iborat. Ayni vaqtda qadimiy boy musiqa merosimiz yangi, ya'ni keyingi davrlarda qaror topgan bastakorlik an'alarini ham o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo Benazir musiqiy folklorlarning serjilo va rang-barang turlari barcha musiqa janrlari uchun tamal toshi vazifasini o'taydi.

Ayni paytda musiqiy folklorlarning xalq ma'naviy hayoti va turmush tarzidagi tabiiy ko'rinishi ham davom etmoqda. B o'rinda turli viloyatlarga uyushtirilgan ilmiy-amaliy safarlarning ham ahamiyati katta bo'ldi. Jumladan, 1991-1992-yilari Jizzax viloyatiga, 1991,2001-yillari Toshkent viloyatiga, 1991-1997, 1999-2007 yilari Qashadaryo-Surxondaryo viloyatlariga, 1993-2003 yillari Farg'ona vodiysiga, 1995-yili Sirdaryo-Jizzax viloyatlariga, 1999-200 yillari Buxoro viloyati va Qoraqolpog'iston Respublikasiga uyushtirilgan musiqiy folklor-ekspedisiyalari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu mehnatning natijasi o'laroq respublikamizning hududlarida qo'shiq, terma, lapar-aytishuv, yalla kabi janrlar eng ommaviy aytimlardan ekanligi ma'lum bo'ldi. Zero, bu turdagi ijrochilik qariyb barcha viloyat tumanlarida uchraydi.

Marosim yoki muayyan vaziyat bilan bog'langan aytimlardan "Yor-yor", "Kelin salom", "Ramazon" ham shu ko'rsatkichni takrorlaydi. Shu bilan birga ashula va qarsak janrlari ma'lum hududlarda, ya'ni ashula Farg'ona vodiysi, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Urganch shaharlarida, Jizzax hududlarida yashovchi aholi orasida ijro yetilib kelishgan va hozir ham bu an'analar bardavomligi saqlab kelinmoqda.

Nisbatan kichik hududlar miqyosida yoyilgan janr (tur)lardan Mavrigi-asosan Buxoro shahri va Shaxrisabz viloyatining ayrim joylarida, qisman Samarqandda, "yovvaylo"- Farg'ona viloyatining Sux tumanida, rivoyat qo'shiqlari Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida, do'mbira va sibizg'a kuylari esa asosan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida o'z mavqeini saqlab qolmoqda.

Shu bilan birga Respublikamiz musiqa madaniyatida tavsif etilgan to'rtta asosiy mahalliy uslub- Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm musiqiy an'alarining o'ziga xosligi, o'xshashligi, farqli jihatlar va o'zaro yaqinlashib borish xususiyatlari bugungi kunda umummusiqiy madaniyatimizni keng diapozoni va janr rang-barangligini belgilaydi. Respublikamizdagi viloyatlar aholi migrasiyalarining o'tgan asr o'rtalaridan ancha jadallashganligi, aholi umumiy madaniyati, turmush tarzining ham o'zaro faollashuvi shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ayniqsa, radio, televideniye kabi vositalarning madaniy qiymatlar (an'ana, urf-odat, marosim) almashinuvining tezlashuvi kabi muhim omillar sifatida ko'rsatilishi mumkin. Ushbu qayd etilgan mahalliy musiqiy uslublarning ayrim ko'rinishlarini in'ikos etgan Jizzax viloyati xalq musiqasi ham e'tiborni o'ziga tortmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalq musiqasi ijodiyotining mahalliy uslublariga xos namunalari sifatida tasnif etiluvchi "muayyan vaziyat va tadbir-marosim bilan bog'langan aytim-kuylar"ning hozirgi kunda "zamonaviylashgan" an'alar bilan aralashib, "omuxta" ko'rinishlari paydo bo'layotganligini ham e'tibordan qochirish, bu holatni ham xolis baholash vaqti keldi. Tabiiyki, ayrim marosim, urf-odat va mehnat turlarining ijtimoiy mohiyati o'z kuchini borishi natijasida ular bilan bog'liq aytim yoki kuylarning ham dastlabki vazifasi o'zgarib, endilikda "nomarosim" xalq musiqasi guruhiga taaluqli bo'lib qolmoqda, ba'zi namunalar yesa o'z qadr-qiymatini yo'qotish arafasida turganligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Yuzaga kelgan bu vaziyatda Respublikamizda bir qatoq chora va tadbirlar (shu jumladan folklor-etnografik ansambllarining tuzilishi va faoliyatiga e'tibor kuchayganligi, maxsus ko'rik-tanlovlarning tizimli tarzda o'tkazilib kelinayotganligi, musiqiy folklorning turli hududlar (mahalliy uslublar) aholisiga tegishlilik xususiyatlarini tabiiyligini saqlab qolish, ularni yosh avlod ma'naviyatiga, ta'lim-tarbiyasi mazmuniga yanada chuqurroq singdirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

E'tirof yetish kerakki, bizning davrimizga qadar yetib kelgan musiqiy folklor namunalari ko'proq viloyatlarning qishloq tumanlarida o'zining tabiiy

hayotini davom yettirib, o'z tabiiy xususiyatlarini saqlab kelayotgan bo'lsa-da, biroq shahar muhiti, turli ijtimoiy guruhlarining ma'naviy-madaniy talab va ehtiyojlari ta'sirida, ayrim holatlarda chet el madaniyatiga xos ayrim unsurlar, ko'rinishlarni hayotimizga kirib kelishi oqibatida ularning tabiiyligiga putur yetib, o'rni va ahamiyatiga e'tibor susaymoqda.

Alaxusus, bugungi shahar folklorining ajralmas qismini "Yor-yor", "Kelin salom", "Alla" kabi hozirda ham asl qiyofasi va ahamiyatini deyarli saqlagan oilaviy marosim qo'shiqlari, shuningdek, ohang va so'z matnlari ma'lum o'zgarishlarga yuz tutgan "Ramazon" aytimi singari namunalargina tashkil yetishi jiddiy muammolardan desak xato bo'lmaydi. Qolgan ko'pgina marosim va nomarosim aytimlar, raqslar, raqs-harakatli o'yinlar tobora "sahna folklori"ga aylanib borayotganligi ham tashvishli muammolardandir.

Mana shunday vaziyatda xalq musiqa folklorlarini asl ijrochilik an'analari, shakllari, usullari, ko'rinishlarini san'arshunosik, musiqashunoslik, va xalq tarixiy turkumi, madaniyati, an'analari, marosimlari, urf-odatlarining badiiy in'ikosi sifatida saqlab qolishi, yoshlarimizni ularni o'rganish, qadrlash, asrab avaylash va ularni davom ettiruvchi vorislari sifatida tarbiylash maqsadlarida foydalanish ta'lim-tarbiya ishlari uchun daxldor kishilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu esa o'z navbatida ta'limning barcha bo'g'inlarida shu jumladan bizning tadqiqotimiz manbai bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida o'quvchi-yoshlarni O'zbekiston deb atalmish yagona millatning turli vohalarda yashovchi xalqlariga tegishli musiqa folklori bilan birinchi sinfdan boshlab izchil va maqsadli ravishda tanishtirib borish har bir musiqa o'qituvchisining muqaddas vazifasiga aylanmog'i lozim. Buning uchun esa oily pedagogik ta'lim jarayonida bo'lg'usi o'qituvchilarni xalq musiqa folklori bo'yicha malakaviy tayyorgarligini kuchaytirish, musiqa o'qituvchilarini o'quvchilarda milliy xalq musiqa merosi, xususan mahalliy uslublar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik va metodik tizimini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Hozirda o'zbek xalq musiqa ijodiyoti pedagogika oliy o'quv yurtlarini

“Musiqiy ta’lim” yo’nalishlari (musiqa o’qituvchilari tayyorlashga ixtisoslashtirilgan), madaniyat va san’at bilim yurtlari (boshlang’ich sinf va maktabgacha ta’lim muassasalari, musiqa va san’at maktablari uchun kadrlar tayyorlaydigan) o’quv jarayonlariga bir qator fanlar (o’zbek xalq musiqa ijodi, an’anaviy xalq musiqasi va maqom asoslari, an’anaviy musiqa ijrochiligi, o’zbek mumtoz qo’shiqchiligi, Sharq xalqlari musiqa madaniyati va hokazo) tarzda tadbiiq qilingan. Shu bilan birga o’zbek xalq musiqasi durdonalaridan yosh avlodni bahramand etish asosida umumta’lim maktablari (1-7 sinf) o’quv dasturi va darsliklarida ham o’zbek xalq musiqa merosiga katta o’rin ajratilgan. Birinchi sinfdan boshlab o’quvchilarni xalq musiqa merosi bilan izchil tanishtirib borish ko’zda tutilgan. Chunonchi, 1-sinfdayoq o’quvchilar o’zbek xalq cholg’ulari, ayrim aytim namunalari, xalq kuylari bilan tanishadilar, bolalar folkloriga mansub namunalarni kuylaydilar. 4-sinfda yil mavzusi “Xalq musiqasining ommaviy janrlari” deb nomlanib, unda o’quvchilarga ommaviy janrlar-alla, lapar, yalla, qo’shiq, mavsum-marosim qo’shiqlari haqida tushunchalar berish ko’zda tutilgan. Repertuarga shu janrga mansub ko’plab namunalar kiritilgan.

Oltinchi sinfda esa o’quvchilar o’zbek mumtoz musiqasi haqida, shu asosda Sharq xalqlari mumtoz musiqasi bo’yicha eng zarur bilimlarni oladilar. Yettinchi sinfda esa o’quvchi musiqasining mahalliy uslublari va ularga xos namunalar haqidagi bilimlar bilan tanishadilar. Shunday so’ngina xalq musiqa ijodiyotining oliy cho’qqisi bo’lishi maqom musiqasi, Shashmaqom, Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari va Xorazm maqomi haqida umumiy bilim va tushunchalarni o’zlashtirishga kirishadilar. Ko’rinadiki, bularning barchasi o’sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, uni sevuvchi, qadrllovchi, ravnaq ettiruvchi shaxslar qilib tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mustaqillikdan keyingi davrda xalq, musiqa ijodiyoti uning turli janrlari, shakllari, ijrochilik an’analari, uslublari, xalq musiqa merosidan estetik, talim-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish borasida ko’plab tadqiqotlar amalga

oshirildi. Ularning natijasi o'laroq xalq musiqa ijodiyotiga, xususan, folklor musiqa borasida ko'plab monografiyalar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratildi. Bular orasida F.M Karomatlining "O'zbek xalq musiqa merosi" turkumli ilmiy asarlari, R.S Adullayevning "Markaziy Osiyo xalqlari marosim musiqasi" ga bag'ishlangan monografiyasi, A.Xasanovning "Musiq va tarbiya", R.Y. Yunusov va O.A Ibroximovning "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti" o'quv uslubiy qo'llanmasi, T.Nozimovning "O'zbek folklor san'ati", I.Qudratovning "Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash" nomli monografiyalari diqqatga molikdir.

Mustaqil O'zbekistonda milliy musiqamiz ravnaqiga uning targ'ibotiga davlat tomonidan alohida va doimiy ravishda e'tibor berilayotganligini 1997-yildan har ikki yilda Samarqand shahrida o'tkazilib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali misolida ham ko'rish mumkin. Mazkur festival nafaqat o'zbek xalq musiqa san'ati rivojida balki aytish joiz bo'lsa sharq xalqlari va keyingi yillarda doirasi kengayib borish bilan ko'plab G'arb xalqlari musiqa madaniyatimizda ham ijodiy hamkorlikning yangi sahifalarini ochib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Musiqa merosimizning mahalliy uslublariga tarkibida katta mavqega ega bo'lgan yana bir janri dostonchilik ijodiyoti bilan bog'liqdir. Shu bois ham mamlakatimizda baxshi dostonchilik san'ati, ijrochilik an'alarini rivojlantirish, keng ommalashtirishga milliy qadriyatlarimizni e'zozlash va xalq og'zaki ijodi va ijrochilik faoliyati bilan xalqimizni, ayniqsa yoshlarni ko'p ming yillik madaniyatimiz sarchashmalaridan bahramand qilishdagi salmoqli hissalarini hamda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishni yanada rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni bilan "O'zbekiston respublikasi xalq baxshisi" faxriy unvoni ta'sis etildi.

O'zbekistonda "ustoz-shogird" kabi qadimiy an'analarga asoslangan bir necha dostonchilik maktablari, mashhur ijrochilik markazlari mavjud. Ular asosan Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm vohalarining bir qator

hududlarida joylashgan. Hozirgi paytda dostonchi-baxshilarning turli darajada o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlari, teledasturlardagi baxshilar chiqishlari, maxsus ko'rsatuvlar, ommaviy bayram tadbirlaridagi chiqishlari bu ko'hna ijodiyotini rag'batlantirishga, ayrim unutilayotgan namunalarni qayta tiklashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga qadimdan dostonchilik an'analari mavjud hududlarining musiqiy bilim yurtlarida (san'at kollejlari nazarda tutilmoqda) ushbu soha ijrochiligini amaliy o'zlashtirgan dostonchi-baxshilar (ya'ni ixtisoslashgan professional ijrochilar)ni yetishtirish maqsadga muvofiq keladi. Bu borada Xorazmda amalgam oshirilayotgan ishlar ibratlidir. Bugungi kunda Xorazm viloyatida Hojixon Boltayev, A.Otajonov nomli musiqa va san'at maktablarida xalfalar sinflari mavjud. Bu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga Xorazm xalfachilik san'atidan tashqari, dostonlardan parchalar, xalq kuylari va laparlarining cholg'u yo'llari va aytimlari o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Ijrodagi milliylik, yuqori badiiylik, o'ziga xos uslubni ifoda yetish natijasida bu maktab o'quvchilari Respublika va hatto xalqaro bolalar folklor festivallarida muvaffaqiyatli qatnashib sovrinli o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni O'zbekiston sarhadida qaror topgan to'rtta asosiy mahalliy musiqiy uslub, uning mohiyati, o'ziga xosligi, o'xshash va farqli jihatlari, aytim an'analari, ayrim o'zigagina xos janrlari, uslublari bilan tanishtirib borish, ularda milliy o'zlikni anglashlarida, shu aziz yurtning chinakam farzandlari bo'lib, ma'naviy yetuk axloqiy barkamol insonlar bo'lib yetishlarida xususan tong ma'noda madaniyatli shaxs sifatida shakllanishlarida muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarda xalq musiqa ijodiyoti, jumladan, uning mahalliy uslublarga oid musiqiy tasavvurlarini shakllanishi, ularda mazkur uslublarga xos namunalarni o'rganishga nisbatan moyillikning paydo bo'lishi har bir uslubning o'ziga xos ijrochilik uslublari betakror jozibasini hisyotish asarlarda ifodalangan mavzu, obraz his tuyg'ularning o'z tuyg'ulari bilan mutanosibliги ijroyetilayotgan, tinglangan, tanishgan folklor qo'shiqlari mazmunida ifodalangan insonning ichki kechinmalari, hayajonlari orzu-umidlari,

intilishlarini his qilish vatanparvarlik, xalqparvarlik insonlarga nisbatan mehribon, sadoqatli bo'lish, mexnasevarlik, to'g'rilik, halollik kabi xususiyatlarining qaror topishiga olib kelishiga muqarrar.

Xalq musiqa namunalari o'ta kuchli ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat o'quvchilarni estetik tarbiyalash, balki, ularga milliy qadriyatlarni singdirish, milliy an'ana, urf-odat, marosimlaridan xabardor bo'lish va barkaml inson shaxsini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kuchdir. Shunday ekan, bugungi kunda musiqa darslarida mahalliy uslublarga xos musiqa folklori haqida o'quvchilarga bilim berishda nimalarga e'tibor qaratish lozim degan savol tug'iladi. Bizning mazkur tadqiqot ishlarini olib borish davomidagi izlanishlarimiz bu o'rinda quyidagilarni alohida ta'kidlash lozimligini ko'rsatdi:

1. Xalq musiqa ijodiyoti, xususan uning mahalliy uslublar bilan bog'liq namunalarini o'rganish, tanishish, kerakli ma'lumotlarni egallashga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari jarayonida nazariy va amaliy bilim hamda tajribalardan, turli mavsum, marosim, an'analar bilan bog'liq qo'shiq-aytimlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish, ularni o'quvchilar tomonidan ongli idrok qilinishiga e'tibor qaratish;

2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik muhitni vujudga keltirish, har bir namunani tinglash, o'rganish, kuylash, u haqda suhbat, tahlil qilishda estetik tarbiya qonuniyatlariga amal qilish va musiqa o'qituvchilarida birinchi navbatda xalq musiqa ijodiyoti, uning mahalliy uslublariga tegishli namunalarini, turli janrlardagi, hatto dostonchilik qo'shiqlarini ijro yeta olish ko'nikmalarini takomillashtirish.

3. Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida xalq qo'shiqlari (alla, yalla, lapar, qo'shiq, katta ashula, dostonchilik qo'shiqlari, mehnat, mavsum-marosim)ni ijro qilish uslublari haqida o'quvchilarga yetarli nazariy ma'lumotlar berish, ularni amaliy ijro bilan bog'lab tushuntirish, ko'rsatish, shu orqali ularning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, estetik did, idrok kabi sifatlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ishlarni amalgam oshirishda

ma'ruza, seminar, amaliy trening, mehnat vositalaridan foydalanish, she'riy-bayon, kuylab ko'rsatish, mashhur ijrochi-xonandalar, folklor jamoalari ijrolarini eshittirishga ye'tibor berish. Bu ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim omillar ekanligini unutmaslik;

Tabiiyki, bunday ish tutish natijasida o'quvchilarda o'zbek milliy musiqa merosi, uning turli janr yo'nalishlari, uslublariga tegishli zarur bilim, ko'nikmalarni egallashlarida keng imkoniyat beradi.

II BOB: Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari

2.1. Mahalliy uslublar bo'yicha o'quvchilar o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiallari mazmuni.

Mahalliy uslublar mavzui umumta'lim maktablarining 7-sinf dasturiga kiritilgan bo'lib, ular yil va chorak mavzulariga quyidagi kiritilgan. Yil mavzusi: "Xalq musiqasining mahalliy uslublari. Maqomlar haqida umumiy tushuncha". I- chorak. "Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand-Buxoro" vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv". 2-chorak mavzusi uslublari bilan tanishuv" deb nomlanadi. 3-4 chorak esa maqomlarga oid mavzularni yoritishga mo'ljallangan bo'lib, unda o'quvchilar "Shashmaqom" va Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar.

Fan dasturida sinf o'quv materiallarini o'zlashtirilishi bo'yicha o'quvchilar egallash lozim bo'lgan bilim va malakalar mezonini quyidagicha belgilangan: O'quvchilar musiqa san'atida mahalliy uslublarni mahalliy xalqning shevalariga(so'zlashuv nutqidagi), mahalliy kiyimlari, cholg'u sozlari, raqslaridagi usul, harakatlar, urf-odatlar bilan bog'liq madaniyatiga qiyoslab o'rganishlari, mazkur viloyatlar hududlariga xos mahalliy musiqiy an'analarning ayrim namunalarini, ijrocilik uslublari, ijro holatidagi muhim o'ziga xos jihatlari bilib olishlari, o'zlari yashab turgan joylarida mavjud bolgan mashshoqlar, xonandalar, baxshi-shoirlar yallachilar, xalfalar, turli marosimlar va ularda aytiladigan aytimlarni o'ziga xos ijro xususiyatlarini o'rganishlari, musiqa o'qituvchilari ysa bu borada o'quvchilar bilan bu borada maxsus izlanish, uchrashuvlar, davra suhbatlari, o'tqazib, taniqli folklor jamolari faoliyat ko'rsatgan muassalarga musiqiy sayohatlar uyushtirib turishlari lozim.

Shuningdek o'quv yili davomida o'quvchilar uztozona musiqa, uning xalq (folklor) musiqasidan farqli jihatlari (shakl, mazmun, ijro, uslub) haqida

umumiy tushunchaga ega bo'lishlari, ustozona- kasbiy musiqaaning mohiyati, uning mumtoz (mumtoz, mustandi) ahamiyatga ega bo'lgan badiiy yetuk, barkamol ijod mahsuli yekanligini, "Shahmaqom" ashulaga doir asosiy kuylarni tinglab, doira usullarini va kuy ohanglarini ajrata bilishlari kerak.

O'quvchilar "Farg'ona-Toshkent" maqom yo'llari haqida beriladigan bilimlar sirasida ushbu vohalarda qaror topgan maqom yo'llarining o'ziga xosligi, turkum va tuzilish jihatidan "Shashmaqom"ga o'xshamasligi (ya'ni, yaxlit turkum emasligi), alohida-alohida bo'lgan cholg'u, kuy va ashula yo'llaridan iboratligini bilib oladilar. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga maqom yo'llari nomlanishi, "Yovvoyi maqom" iborasi va uning mazmun mohiyati, maqomlarning mashhur surnay yo'llari va ijrochi xofizlari, cholg'ulari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

O'quvchilar Xorazm maqomlarining, umuman olganda "Shashmaqom" shakl tuzilishiga mos kelishi, ulardagi har bir maqomda ham ikki bo'lim-cholg'u va ashula yo'llarining mavjudligi hamda ularning o'xshashli, farqli xususiyatlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari, mashhur xalq kuy-cho'shiqlari, kasbiy musiqa janrlariga doir ashula, katta ashula, doston ashulalarining ijro uslublari (mashshoqlik, ovoz ishlatish, nola, qochirimlar) orqali farqlay bilishlari lozim. Ko'riladini bunday keng qamrovdagi bilimlarni egallash ancha murakkab bo'lib, unda har bir dars uchun o'quv materiallari mazmunini belgilashda o'qituvchi eng muhim jihatlarini mohirlik bilan ajrata bilish va ularni o'quvchilarga yetkazishning samarali usullarini tona bilishi lozim bo'ladi.

Endi, ta'kidlab o'tilgan mahalliy uslublarga doir o'quv materiallari mazmuni bilan qisqa va umumiy holda tanishib o'tamiz.

Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga doir o'quv materiallari mazmunida quyidagi ma'lumot va tushunchalar qayd etilgan:

- Qashqadaryo-Surxondaryo musiqa uslubi deganda Qashqadaryo-Surxondaryo viloyatlari hududida asrlar davomida shakllangan barcha musiqiy-badiiy an'analar tushuniladi. Bular-mehnat aytimlari, mavsum-marosim cho'shiqlari, cho'ponlarishodi, baxshilar san'ati kabilardir. Ular turli

vaziyatlarda, xalqning turmush tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, xususan, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayl va tantanalarda yuzaga kelgan va ijro etilgan. Bu hududda yashovchi xalq ijtimoiy turmushida qadimdan chorvachilik va dehqonchilik yetakchi o'rin tutganligi bois, bu yerda ushbu mehnat jarayoni bilan bog'liq aytilmalar, kuylar, ko'plab ijro etilgan. Budan tashqari mavsum-marosim, ommaviy, bayram va xalq sayllari (Navro'z bayrami, Lola sayli) qo'shiqlari hamda qarsak o'yni aytilmalar va yana ko'plab ommaviy kuy-qo'shiqlar bebaho meros sanaladi. Surxondaryo-Qashqadaryo an'anaviy cholg'ulari qatorida do'mbra, qo'biz, cho'pon nay, sibiziq, chanqovuz, doira asosiy o'rin tutadi. Aytib o'tilganidek Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubda mehnat aytilmalari o'ziga xos o'rin tutadi. Ya'ni, chorvachilikka doir aytilmalar asosan qo'y, echki, qoramol, biyalarni sog'im paytida aytilgan. "Xo'sh-xo'sh" (sigir sog'inida), "Turey-turey", "Churey-churey" qo'y, echkilarni sog'imida kuylashgan. Cho'ponlar ijodi ham shu mehnat jarayoniga aloqador bo'lib ular asosan sibiziq, do'mbira, cho'pon nay, sozlarida ijro yetilgan. "Kuylarni sudrash", "Qo'ylarni ko'chirish", "Qo'ylarni yig'ish" shular jumlasidandir. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar "Qo'sh haydash", "Xo'p hayda", "Yozi" kabi nomlar bilan ataladi. Dehqonchilik bilan bog'liq barcha ishlar boshlanishida "shoh moylar" marosimi o'tkazilgan. Qishloq ahli yig'ilib qo'shga qo'shiladigan ho'kizlarning shohlarini Navro'z bayramiga atab pishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan moylagan, keksaroq bir kishi Bobodehqon bo'lib, dalaga birinchi qo'sh solgan va bu marosimda "Shox moylar" qo'shig'ini kuylashgan.

Bir kishi: Qo'shga ildam yurmasang,

Ko'pchilik: Qo'shga ildam yurmasang.

Bir kishi: Uchashga turtib qo'yaman,

Ko'pchilik: Uchashga turtib qo'yaman.

Bir kishi: Yaxshi yursang shoxinga,

Ko'pchilik: Yaxshi yursang shoxinga.

Bir kishi: Moylar surtib qo'yaman,

Ko'pchilik: Moylar surtib qo'yaman.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubining yetakchi yo'nalishlaridan biri dostonchilik an'analaridir. Doston adabiy musiqiy asar, uning tarkibida nasriy va nazmiy qismlar bo'lib, nazm qismi musiqa jo'rligida (qo'shiq qilib) kuylanib ijro etilgan. Doston ijrochilarini shoir yoki baxshi deb atashgan. Surxondaryo-Qashqadaryo uslubida dostonlar "bo'g'iq" ovozda kuylashadi. Vohada dostonchilikning iki yirik maktabi dovrug' qozongan. Bular Shahrisabz va Sherobod dostonchilik maktablaridir. Abdulla Nurali, Islom Nazar o'g'li Shahrisabz dostonchilik maktabini, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Normuroq baxshilar Sherobod maktabini yirik vakillaridir.

Dostonchilik an'anasiga ko'ra doston kuylashdan oldin "terma"lar aytilgan. Terma- doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan, har xil dostonlarga ta'rif berib (qisqa satrlarda) "qay dostondan aytayin" deb murojaat qiladi. Tinglovchilar tanloviga ko'ra bisotidan bir dostonni kuylashni belgilaydi. Bu uslubga mansub aytimlar sirasida mavsum-marosim. Turli urf-odat va bahor fasli qo'shiqlari ham keng tarqalgan.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubini haqida tushuncha. Buxoro-Samarqand shahar va viloyat hududlarida an'anaviy shakllangan musiqiy an'analar- xalq qo'shiqlari, ashulalari, cholg'u kuylari, qaqrak o'yin ayimlari va kasbiy musiqaga oid dostonchilik, sozandachilik, maqom san'ati keng o'rin tutadi.

Mazkur uslubga xos eng muhim xususiyat bu- ikki tillilik, ya'ni o'zbek va tojik tilida ijro etish an'anasining namoyon bo'lishidir. Ikki tillilik an'anasi xalq musiqasida turlicha shakllarda aks etadi. Ayrim xalq qo'shiqlarini bir vaqtning o'zida ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylanadigan varianti. Bunda qo'shiq bandlari o'zbek tilida, naqarot esa tojik tilida, ba'zan aksincha, ayrim xalq qo'shiqlari har ikki tilda kuylanishi imkoni mavjuddir. Xalq bayramlari, to'y-tomoshalari bilan bog'liq "Guli surx", "Qayroq o'yin", "Zang o'yin" keng tarqalgan. Buxoro-Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san'ati ham ancha

keng rivollangan bo'lib, u asosan ayollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda- bu yakkaxon aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang (qo'ng'iroqcha) ushlab raqsga tushadi, qo'shiq bandlarini kuylaydi. Ikki –uch ayoldan iborat doirachilar dastasi yesa naqarot bilan jo'r bo'lib turishadi. Sozanda dastasida jami uch-to'rt ayol qatnashadi. Ular o'z san'atini faqat xotin-qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, to'y, bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o'zbek va tojik tilida, repertuari yesa o'yin-aytimlaridan iborat bo'ladi.

Buxoro-Samarqandning uslubidagi boshqa vohalarda uchratadigan janrlaridan biri bu “Mavrigi” janridir.

“Mavrigi”- ko'p qismli o'yin-aytim turkum bo'lib, uning ijrosida uch va undan ortiq kasbiy xonandalar va bir ikki o'yinchi (raqqoslar) ishtirok etadi. Mavrigi asosan erkaklar tomonidan aytimlar va raqs-o'yiniga tushiladi. Jo'rsiz sifatida faqat doiradan foydalaniladi.

Mavrigi aytimlarida ikki tillilik an'anasi namoyon bo'lib turadi. Mavrigixonlik asosan Buxoro va uning ayrim tumanlarida tarqalgan. Ijroda yakkaxon- bandni aytadi, naqarotchilar ishtirok etadi. Ashula ikki va undan ortiq qismlardan iborat bo'lib, dastlabki qism vazminroq ruhda bo'lgan “ Kirish”, keyingi qismlarda ritm tezlashib boradi. Shu sababli unda usullari asosiy tutadi.

“Mavrigi”

Buxoro-Samarqand uslubidagi o'yin-aytimlarning yana bir turi qarsak janri bo'lib, u turli tomoni va davralarda ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Yakkaxon aytimi va raqsiga davradagilar aylana shaklda o'chirib olib qarsak bilan jo'r bo'lib turishadi va naqarotlarni kuylashadi. Qarsak o'yinlarining bir necha turi mavjud: Qars, yakka qars, qo'sh qars, uch qars, besh qars kabi.

Buxoro-Samarqand dostonchilik an'analari. Dostonchilik an'analari asosan Bulung'ur, Qo'rg'on, Narpay, Nurota tuman hududlarida qaror topgan. Ulardan Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktabi ancha mashhur. Bulung'ur maktabi vakillaridan Amin baxshi, Chinni shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldosh bulbul, Yo'ldosh shoir, Qo'ldosh Suyar, ayniqsa Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) juda mashhur.

Qo'rg'on dostonchilik maktabida ham Yodgor baxshi, Lafas shoir, Mulla tosh, Mulla Xolmurod, Yergash Jumanbulbul (1868-1937), Po'lkan shoir (1874-1941) yirik vakillari hisoblanadi.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi. Farg'ona-Toshkent shahar va viloyatlari hududlarida yashovchi xalq musiqa hayotida vujudga kelgan turli an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar bilan bog'liq kuy-qo'shiqlar, aytimlar va maqom yo'llaridir. Xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, mumtoz asarlar janrlariga mansub ashula, dostonchilik, maqomchilik kabi san'at yo'nalishidagi asarlar bu uslubda keng taraqqiy topgan.. Bundan tashqari bu mahalliy uslubda bolalar folklori, xotin-qizlar qo'shiqchilik ijodi yallachilik, ashulachilik ham keng ommalashgan. Bolalar qo'shiqlari "Boychechak", Yomg'ir yog'aloq" "Laylak keldi" "" "Oftob chiqdi" kabi she'rlar jumlasidandir.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi "Katta ashula" deb nom olgan ashula janri ham bo'lib, bu boshqa uslublar musiqa amaliyotida uchramaydi. Dostonchilik an'analari maqom "Alpomish" "Rustamxon" "Avazxon" "Shirin bilan Shakar" singari dostonlar ijro etib kelinadi.

Farg'ona-Toshkent ansamblida deyarli barcha xalq cholg'ulari-dutor, tanbur, rubob, nay, sato, g'ijjak, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora, ko'rish

mumkin. Bu cholg`ularning ayrimlari uchun maxsus ijro yetiladigan kuylar bor. Karnay, surnay, nog`ora, to`y bazmlari bilan bog`liq marosimlarda (Shodiyona, Duchava), dutor cholg`usi uchun “Qo`shtor”, “Chertmak”, “Dutor bayoti” kabi kuylar, tanbur, sato, nay, qo`shnay, g`ijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqalar ijrosida qo`llaniladi. Raqs kuylari ancha mashhur-”Tanovar”, “Dilxiroj”, “Andijon polkasi”, “Katta o`yin” kabilar ayniqsa juda mashhur.

Farg`ona vodiysida xotin-qizlar ijodi, xususan lapar, yalla, yor-yor aytishuvlari, kelin salomlar ommaviy tus olgan. Yallachilik san`ati esa alohida o`ri tutadi. Yalla-bu band-naqarot shaklidagi aytim bo`lib, u raqsga tushib kuylanadi. Yakkaxon-yallachi doira jo`rligida raqsga tushib bandlari kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo`lgan ko`pchilik aytishadi. Bundan tashqari Buxoro-Samarqand sozandalari va Xorazm xalfalari san`atiga yaqin bo`lgan kasbiy yallachilar ham bo`lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo`ladi.

Yallama yorim

Toshkent-Farg'ona uslubida xalq ashulalari o'ziga xos mavqega ega. Ular barmoq va aruz vaznidagi she'rlar asosida aytiladi, diapozonini kengligi bilan farqlashadi. Ular xalq og'zaki musiqa ijodiga tegishli va kasbiy musiqaga oid bastakorlar tomonidan yaratilgan ashulalarga “Tanovar”, “Yey, nozanin”, “Farzona”, “Ul parivash”, “Chaman yalla” kabi ko'plab namunalarni misol keltirish mumkin. Ashulalar mohir ijrochilari Mamatbobo Sattorov, Yerkaboy qori, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Rasulqori Mamadaliyev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Zaynab Polvonov kabilar el sevgan mashhur xofizlardir.

Katta ashulaga misol:

Bir kelsun.

Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha. Xorazm musiqa uslubi o`ziga xos shevasi, kuyining liboslari, raqs xarakatlari turfa ko`rinishlari o`ziga xos jozibalar va xilma-xil rangin uslibidur. Bu uslubga ham qo`shiq, lapar, maqom, dostonchilik turli marosim tomoshalar bilan bog`liq o`yin-raqs turlari keng tarqalgan.

Xorazm xalq musiqasida ma`lum darajada turkman ozarbayjon musiqasiga yaqinlik xususiyatkari sezilib turadi. Xorazm musiqa uslubida a`anaviy cholg`ularida bo`lomon keng va boshqa uslubga xos emas, shuningdek, Kavkazning mashhur tor cholg`usi ham keng ommalashgan. Raqs va o`yin harakati bilan bog`liq cholg`u kuylari salmoqli o`rin tutadi: Ular ijro etilish mazmuni holatiga ko`ra bir necha turga bo`linadi:

1. Ommaviy raqslar- Lazgi, Gangin Qorabog`, “Ufori” kabilar;
2. Darbozlarning o`yin kuylari. “Yelpizalandi”, ”Ufori yelpizalandi” kabilar;
3. Qiziqchi va masxarabozlarning o`yin kuylari: “Chog`ollox”, “Az-az”, “Az-azning tezi”, “Xorazmcha”, Yuz bir”, “Ot yeroni”, “Surnay yo`li” kabi namunalar.

Ommaviy bayram sayllarida ijro etiluvchi “Xatarli o`yin” turkumidagi raqslarda parranda va hayvonlar hatti-harakatlari ifodalangan. Masalan, “Ot o`yin”, “Tustovuq o`yini”, “Kaptar” kabilar shular jumlasidandir. Xorazmda lapar janri keng tarqalgan. Bu yerda laparlar nafaqat ikki kishi tomonidan, balki yakkaxon (asosan ayollar) tomonidan raqsga tushib aytilgan.

Misol:

Par devol

Yettinchi sinf darsligidan o'rin olgan Xorazm musiqa uslubiga doir o'quv materiallari tarkibida Xorazm dostonchilik an'alariga ham alohida o'rin berilgan. Xorazm dostonchilik an'analari ham o'ziga xoslik xususiyatlariga farqli ijrochilik yo'llariga yegalligi bilan ajralib turadi. Bu asosan doston qo'shiqlari " bo'g'iq ovozda"(ichki) emas, balki "ochiq ovoz" uslubida kuylanishi va jo'rnavoz sozi sifatida dutor, tor, akkordeon foydalanilishida va doston aytimida ijrochilar ansambli qatnashishida ko'riladi. Ansambli ijrochiligida ustoz-baxshi dutor,tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijak,bo'lomon, doira sozlari jo'r bo'lib turishadi. Xorazm dostonchiligida asosan "Oshiq g'arib va Shoxsanam", 'Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Bozurgon", "Oshiq Oydin" kabi dostonlar kuylanadi.Xorazm dostonchiligida uning bir tarmog'i bo'lib shaklangan xalfalar san'ati ham ahamiyatlidir. Xalfachilik asosan ayollar o'rtasida urf bo'lib kelayotgan san'at bo'lib, uning ko'proq dostonlardan parchalar, termalar, shunigndek turli vaziyatlarda kuylanadigan qo'shiqlar kuylanadi. Bu san'at ham xuddi Buxoro-Samarqand sozandalari singari asosan xotin qizlar ishtiroki bilan bog'liq yig'in marosim, bayramlarda ijro etilgan. Xalfachilik yakkaxon va tarkibida ansambli bo'lgan an'ana ham shakllangan.

Xorazmda ashulachilik san'ati keng ravnaq topgan. Ashulachilar xalq tilida 'go'yanda' deb nomlangan. Ashulalar asosan mumtoz she'riyat namunalariga bastalangan. Bu uslubda "Suvora" nomi bilan mashhur turkumlar mavjud bo'lib (Suvora- fors-tojikcha otliq ma'nosini bildiradi); suvora ijrochilarining didalashma deb nomlanuvchi o'ziga xos musobaqalari o'tkazilib turadi. Suvoralarning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Suvora ashula yo'larining ikki turkumi mashhur:

1.O'n ikki suvoradan iborat Savti Suvoralari turkumi. (Savti Suvora I, Savti suvora II, Savti suvora III va hokazo.

2.Yirik shaklli suvoralar-har biri maxsus nom bilan ataluvchi suvoralar. Suvora, Chapandozi suvora, yakparda suvora, Xushparda suvora, Katang suvora kabi. Xorazmda suvoralardan tashqari “Mustahzod” ashula yo’llar ham mavjud.

2.2. Mahalliy uslublarga xos namunalarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish shakli va usullari

Mahalliy musiqiy uslublarga xos asarlar ya'ni aytimlarni musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan tinglanishi jarayonida, mazkur asarlarga o'quvchilarda ma'lum bir badiiy-emotsional taasurolarni hosil qilish, ularni o'rganish, qadrlash, ijrochilik an'analarini bilishga intilish, ular haqida yig' zarur bilim, tushunchalarga ega bo'lishlarida o'qituvchi tomonidan "asar" haqida beriladigan tavsiflar muhim o'rin tutadi. Bu tavsiflar zamirida asosan namunalarning qay holatda ijro yetilishi inson ijtimoiy hayotining qaysi faoliyati bilan bog'liqligi, g'oyaviy-badiiy mazmuni, kimlar tomonidan ijro etilganligi haqidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topishi lozim.

Masalan, xalq og'zaki musiqa ijodiyotining yeng qadimiy namunalaridan biri bo'lgan mehnat ayimlari mehnat faoliyatining turli ko'rinishlari, masalan, yer haydash, ekin ekish, qo'l tegirmon (yorg'uchoqda) don yanchish, narxda ip yigirish kabi jarayonlarda ijod etilganligi ma'lum. Muayyan mehnatni bir maromda, uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak berish qatorida yana insonga badiiy-estetik zavq bergan, rohat bag'ishlangan, ko'tarinkilik kayfiyatini jo qilgan mehnat qo'shiqlari zamonaviy muhim va sharoitlar ta'sirida o'zgarishlarga uchrayotganligini, ba'zan dastlabki ijtimoiy ahamiyatini yo'qotayotganligini ham ta'kidlash joiz. Masalan, o'tmishdan qo'sh haydab, bug'doy yanchishda aytiluvchi "Maydayo-mayda" xirmon qo'shig'i hozirgi amaliyotda deyarli qo'llanilmaydi. Bu aytim "Boysun" (Surxondaryo) va "Chavki" (Samarqand) folklor yetnografik ansambllari tomonidan qayta tiklangan bo'lsa-da, ammo o'ziga xos zamonaviy-sahnaviy ko'rinishlarda ikkilamchi folklor tusini olgan.

Bug'doy o'rini vaqtida ikki kishi tomonidan ijro etiladigan "Yozi", bug'doy un qilinishi jarayonida aytiluvchi "Yorg'uchoq", sigir sog'imida aytiluvchi "Xo'sh-xo'sh", yechki sog'imidagi "Churey-churey", qo'y sog'imidagi "Turey-turey" hamda don yekinlari xosiyatlarini ta'riflovchi "Bobo

dehqon” epik aytilari hozircha asosan ilmiy o’rganish manbai bo’lib xizmat qiladi.

Mavsumiy marosim qo’shiqlari o’zbek xalqining uzoq tarixiy o’tmishi davomida yuzaga kelgan turli tuman marosim va urf-odatlar tarkibida shakllangan bo’lib, ulardan yeng ommaviylashganlari bahor fasli va Navro’z bayramiga bog’lab ijod etilgan.

Insonning hayotiy yo’li bilan bog’liq muhim sana va marosimlar bilan nishonlanishi an’anaga aylangan. Ana shular sirasiga ommaviy marosimlar bilan bog’liq beshik to’yi, muchal to’yi, xatna(sunnat) to’yi, nikoh to’yi, motam kabilarni kiritish mumkin.

E’tiborli tomoni shundaki, to’y aytilari va sinashda xalqimizning ma’naviy go’zallik haqidagi teran tushunchali badiiy in’ikosini topadi. Bunga “Yor-yor”, “Kelin salom”lar yorqin misoldir.

Xalq musiqa ijodiyotining “nomarosim” aytilari guruhiga mansub terma, qo’shiq, lapar, alla, ashula kabi janrlari bo’yicha turli ko’rik-tanlovlarni o’tkazib turilishi ham ularni ma’naviy hayotimizga tadbiiq etishimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo’nalishga oid ayollar tomonidan ijro etiluvchi Farg’ona vodiysi “Yallachilari”, Xorazm “Xalfalari”, Buxoro-Samarqand “Sozanda” dastalarining faoliyati zamonaviy ko’rinishlarda davom etgani holda, ana shu an’ana davomchilarini musiqa o’quv yurtlarida tayyorlana boshlanganligi e’tiborga loyiqdir. Ba’zi aytil namunalari folklor ansambllarining asosini tashkil yetadi. Masalan, “Omon yor” folklor-yetnografik ansambli lapar, yalla va termalarni, “Doston” ansambli (Xorazm) dostonlardan parchalar bilan bir qatorda lapar, terma, xalfa qo’shiqlarini, “Mohi Setora” folklor ansambli (Buxoro) esa qo’shiq, lapar, yalla hamda sozanda dastalariga xos qo’shiq-raqslarni o’z repertuarida o’zlashtirgan.

Shu o’rinda biz mahalliy uslublarga xos musiqa namunalarni o’rganish, tinglash, tahlil qilish jarayonida nimalarga e’tibor qilish, qanday ma’lumotlarga tayanib ish tutish dars samaradorligini ta’minlashi va o’z navbatida o’quvchilarda xalq musiqasiga nisbatan qiziqishi va o’rganishga bo’lgan

intilishlarini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi xususida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Mahalliy-musiqiy uslublardan Buxoro-Samarqand uslubi bu hududda nisbatan kasbiy musiqani yetakchi taraqqiy etganligi bilan alohida o'ziga xoslik kasb etadi. Bu uslubning yana bir muhim xususiyati mazkur viloyatlar ko'p millatligi bilan ham ajralib turadi, ulardan o'zbek, tojik, yahudiylar ko'pchilikni tashkil yetgan. Shuning uchun ham Buxoro-Samarqand folklorida ikki tillilik keng tarqalgan. Bu uslubga xos namunalarni o'rganishda zang, erma, hay nozanin, ufor, ashulalar qatorida mayda g'azallar deb nomlanuvchi turkum ashulalar ham e'tibor qaratish lozim. Mayda g'azal-maqom va xalq qo'shiqlaridan olingan kichik ashula hamda ijro etish bo'lib, ular mavrigi va maqom ohanglari asosida yaratilgan kichik-kichik xalq qo'shiqlaridan tashkil topadi. Ular ayrim hollarda "termalar" ham deb atalgan. Ularni ayollar o'rtasida keng tarqalgan Buxorcha, zang turkumlarida ham ko'rish mumkin.

Misol:

Naqarot

Dilbari yagonayiman, ofati zamonayiman,
Yo bu bar bahonesh in shab, yo biyo bahonayiman.
Havo havo ba nozi dilbari yagonyayiman
Xasta bo'ldi ovozim dilbari yagonyayiman

Naqarot

Dilbari baho bast in shab dilbari yagonyayiman
Masti sharob ast in shab dilbari yagonyayiman

Naqarot

Qoshing qarolab ichgan piyolada choy ichgan,
Piyolani choyini qaysi da'vogar ichgan.

Naqarot

Qoshing qarolab qo'ydim dilbari yagonyayiman
Zulfing taroqlab qo'ydim dilbari yagonyayiman

Naqarot

O'rdaki bor daryoni dilbari yagonayiman

Chorlab neburet deyman dilbari yagonayiman

Naqarot

Dilbari yagonayiman, ofati zamonayiman

Yo bu bar bahonesh in shab, yo biyo bahonayiman

Misoldan ma'lum bo'ladiki, ushbu mayda g'azalning ilk bayti, so'ngi bayti naqaroti tojik tilida, keyingi, misralari o'zbek tilida aytiladi.

Sahrolarda aytiladigan qo'shiqlar 'Yo boniy' deyilgan. Yo boniy Ushshoq ohanglari asosiada yaratilgan bo'lib, usulsiz ijro etilishining qaysidir jihatlari katta ashulaga ham o'xshab ketadi. Ular Toshkent-Farg'ona uslubidagi Yovvoyi ijrolarga yaqin keladi."Buxorcha" tuzilishiningikki xil shakli bor. Birinchisi, maqomlar asos qilib olingan. Unda "Talqin Uzzol" yoki "Uffori Uzzol" olinib, boshqa uforlar qo'shilib ijro etilgan.

Xorazm xalq urf-odat va marosimlari ham o'ziga xos ko'rinish, an'ana va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xorazmda to'y marosimi bilan bog'liq urf-odatlar bir necha nomlanishlarida bo'lib, ularning har birida unga mos qo'shiq raqslar ijro etilgan. "Xatna to'y", "Qiz uzatuv", "Kelin tushirish to'y" kabilar. "Yotoq to'y" kun botishi oldidan boshlangan. Qizning dugonalari, xotin-xalaj, shuningdek, kuyov tomonidan to'qqiz dasturxon olib kelgan xotinlar qatnashadi. To'y dasturxonidagi noz ne'matlar yoyilib bo'lgan, kayvoni ruxsati bilan qizlar bazm boshlab "Yor-yor" qo'shiqlarini ijro etishgan. Bu bazmga xalfalar ham taklif qilinib, navbati bilan qo'llarda piyola ushlab, bir-biriga urilishi natijasida jarangli ovoz chiqarib, kuylashgan:

Tokchadagi qaychini zang bosibdi yor-yor,

Chiqadigan bekani g'am bosibdi yor-yor,

Yig'lama qiz, yig'lama, to'y saniki yor-yor

Juft kalitli koshona uy saniki yor-yor

Shundan qizga nasihat tarzidagi qo'shiq ijro etiladi. Keyingi bosqichda qizni kuyovnikiga borishiga ruxsat etish bilan bog'liq aytim aytiladi:

Yusuf bilan Zulayho yor yedilar yor-yor,
Bir-birini ko'rmoqqa zor yedilar yor-yor.
Hay-hay o'lan, jon o'lan, haylanamish, yor-yor,
Qizni olib yangasi, shaylanamish, yor-yor.

Kelin kuyovnikiga "To'ylar muborak" qo'shig'i sadolari ostida kirib keladi:

Muboraklar bo'lgay aytgan to'yingiz,
Jun patakli ko'shki ayvon joyingiz.
Mudamo izzatda o'tgay umringiz,
Boshlagan to'yingiz muborak bo'lgay. –deb xalfalar ashula aytishadi.

Kelin kuyovning hovlisiga kirgach, endi kelin salom olish boshlanadi.

Kelin dugonalari bilan xos bezatilgan xonaga kiradi. Kuyov go'shangaga kirib keladi. Yangalar kuyovning o'ng tiuzzasiga o'g'il bola o'tqazadilar. Kuyovga oyna berishadi. U kelin bilan oynaga qaraydi. Kuyov jo'ralari uni ismini aytib: "Otang chaqiradi, akang keldi, do'stlaring ketmoqchi" deb chaqira boshlashadi. Kuyov go'shangadan tashqariga chiqadi. Kuyov ikki do'sti bilan go'shanga yoniga qaytib keladi. Yangalar ularga pishgan tovuq go'shtni uzatishadi. Yigitlar uni og'zi bilan tishlab olib yeyishlari kerak. Bu holatda davrada sho'x kulgu yangraydi. To'yning eng qiziq payti bu- kuyovning tuflisi, belbog'i, kavushini yechishi. Bu ish yangalar tomonidan bajariladi. Tufli, kostyumi cho'ntagida, belbog'ida pul bo'ladi. Buni yechishga qatnashgan yangalar olishi kerak. "Kelin tushirar" to'yidan uch kun o'tgach kelinning otasonasi kuyovni "chaqiradilar". Yana 3-4 kundan keyin "Nikoh qiyish" marosimi o'tkaziladi. Bu marosimlarni har birida o'ziga xos to'y qo'shiqlari ijro etiladi.

Surxondaryo-Qashqadaryo hududida yashovchi mahalliy aholi qadimdan chorvadorlik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan va bu mehnat turlari ular hayotida asosiy omil bo'lib har bir mehnat jarayoniga mos qo'shiq aytilgan yaratilgan. Bu vohada milliy cholg'ulardan do'mbra, qo'biz, cho'pon nay, sibiziq, chanqovuz va doira ardoqli hisoblanadi.

Chorvachilik bilan bog'liq "Sog'im qo'shiqlari" dan iborat bo'lib ular qoramol, biya, tuya, echki, qo'y kabi uy hayvonlarini sog'im paytida kuylashgan. Bunda "xo'sh-xo'sh" qoramolni, "turey-turey", "churey-churey" aytilgan qo'y-echkilarni sog'ishda aytilgan.

Cho'pon qo'shiqlari "Qo'ylarni sudrash", "Qo'ylarni ko'chirish", "Qo'ylarni yig'ish" kabi shartli darakchi kuylar ijro etilgan.

Misol: **Qo'ylarni ko'chirish.**

Misol: **Qo'ylarni yig'ish.**

Dehqonchilik kasbi bilan bog'liq mehnat jarayonida yuzaga kelgan qo'shiqlar "Qo'sh haydash", "Xo'p mayda", "Mayda-mayda" "Yozi" nomlar bilan aytilib kelinadi. Dehqonchilik ishlari boshlangan erta bahorda, yerni haydash vaqti kelganda "Shox moylar" marosimi o'tqazilgan. Bunda yer

haydaydigan ho'kiz shoxlari "Navro'z" bayramiga atab pishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan moylashgan va yerga qo'sh solish chog'ida qo'shiq kuylashgan:

va hokazo.

O'rim qo'shiqlari: O'roq va o'riqchilar guruhi tomonidan o'rim paytida aytiladi:

O'rog'im olmos,
O'rishdan qolmas.
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas.

O'rog'im chaqqon,
Sen menga yoqqan.
Qo'lginam chaqqon,
Mehnatla boqqan.

Xo'p mayda:
Ayri-ayri tuyoqqa, maydayo-mayda,

Ayri poxol yarashar,
Jilviragan quloqqa,
Tilla sirg'a yarashar,

Yorg'ichoq qo'shiqlari. Yorg'ichoq qo'l tegirmoni. Don qo'yar
yanchilgan, mehnat og'ir, qo'shiq insonga hamroh
Yorg'ichoq torta-torta toldi qo'lim,
Ikki tosh orasida qoldi qo'lim.

Hunarmandchilik qo'shiqlari. Hunarmand-kosib, duradgor, kulollar,
bo'zchilar tomonidan to'qilgan va ijro etilgan:

Bo'z to'qiyimiz qirg'og'ini o'xshatib,
Moki otaman dastginamni qashatib.
Bozordagi shoyilardan yaxshi yetib
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

Charx qo'shig'i:
Charxim guv-guv yetadi,
Tovushi uzoqqa ketadi.
Ovulimning qizlari,
Achchiq olma ekadi.
Achchiq olma pishibdi...

Qo'shiqning barcha satrlaridagi bo'g'inlar 2+2+3 shaklida guruhlanadi.
Kuylashda ham o'zgacha sho'xchan ohangdorlik kasb etadi. Shuningdek, ip
yigiruvchining chevarligi o'z san'ati bilan haqli ravishda faxrlanishi
taqqoslovchi yo'l bilan ochib beriladi.

Eak ichida kerak,
Ipginam ipak.

Mening ipimday qilib,
Esholmaydi o'rgimchak

Bu kabi qo'shiqlarda xalq ommasining halol mehnat qilib tirikchilik uchun kurashi, mehnatni sharaflashi namoyon bo'ladi.

Mehnat qo'shiqlarida kun kechirish tarzi hamda kasb va hunarmandchilikning hamma xillari o'z ifodasini topgan. Katta, jo'n tikishdan boshlab, go'zal gilamlargacha, bo'z to'qishdan anvoyi palaklar tikishgacha, jonon piyolayu, go'zallikda tovus patlarini yo'lda qoldiradigan rango-rang atlas kimxoblargacha hammasi kishidining qadoqli qo'li, kechani kunduzga ulagan mashaqqatli shu bilan birga zavqli mehnati bilan bunyodga kelgan.

Marosim qo'shiqlari respublikamizning deyarli barcha hududlarida, shuningdek, bizning tadqiqotimiz obekti bo'lgan vohalarda mavjud bo'lib, ularda farqli jihatlarga nisbatan o'xshashlik xususiyatlari ko'proq namoyon bo'ladi. Masalan, Ramazon qo'shiqlari, "Sust xotin", To'y qo'shiqlarida umumiylik xususiyatlari ustuvorlik kasb yetadi.

Yo Ramazon. Turli urf odatlar va yig'inlar bilan bog'liq bir qancha qo'shiqlar yaratilganki, bunga "Yo Ramazon", "Barot keldi", "Safar qochdi", "Badik", "Buda buda boy", "Sust xotin", "Boychechak" kabilarni kiritish mumkin. Shulardan "Yo Ramazon" eski yil taqvimidagi Ramazon oyida bolalarning uyma-uy yurib aytadigan qo'shiqlari edi. Bu mazmunan diniy qo'shiqlarga o'xshasa-da, ularda xonadon egasiga farzand ko'rish haqida istaklar muhim o'rin tutadi.

"Sust xotin"- deyarli barcha vohalarda mavjud bo'lgan. Qurg'oqchilik munosabati bilan yomg'ir chaqirish marosimida aytiladigan "Sust xotin", "Talabi boron"(Buxoro-Samarqand, Yomg'ir talabi) qo'shiqlari qadimdan qolgan animistik tushunchalar bilan bog'langan. Unga ko'ra ikkita tayoqni bir-biriga ko'ndalang bog'lab, ayollar kiyimi kiydiriladi, boshiga ro'mol o'raladi. Osmondan yomg'ir tilaydigan bu sust xotin tasviri qo'g'irchoqni ayollar yuqori ko'tarib olib uyma-uy yurishadi, hammalari birlashib qo'shiq aytishadi.

Xonadon yegalari chiqib, sust xotin qo'shig'ini aytib kelganlarga suv olib chiqib sepishadi. Non, don kabi turli narsalar berishadi. Qurg'oqchilik, suv tanqis bo'lgan davrlarda, dala-dashtlarda yashagan dehqonlar tabiatga iltijo qilib yomg'ir tufayli mo'l hosil bo'lishini tilashgan. Qo'shiqning murojaat, xitob ohanglari xalqimizning suv haqidagi orzu niyatlarini o'ziga xos yo'sinda ifodalagan:

Sust xotin sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Suv xotin, suvsiz xotin,
Ko'ylaklari bo'z xotin.

Hosillar mo'l bo'lsin suv xotin,
Dehqonning uyi to'lsin, suv xotin.
Kazzobning uyi kuysin, suv xotin,
Suv xotin, suvsiz xotin.

Havoni yondirgan, suv xotin,
Bug'doyni bo'ldirgan, suv xotin.
Elni to'ydirgan, suv xotin,
Suv xotin, suvsiz xotin.

Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyatida kuy qo'shiqlarida "Yor-yorlar", "O'lan aytimlari", lapar, yallalar, keng tarqalgan.

"Yor-yorlar" asosan qiz uzatish kechasida aytilgan. Ular o'zining kuylanishi, naqarotlarga ajralib turishi, ko'pchilik tomonidan aytilishi bilan ajralib turadi. Yor-yorlarda nozik yumor ba'zan satirik elementlar kinoyali mazmunda ham bo'ladi. Bunday mazmundagi qo'shiqlar kuyovni uyiga qiz uzatib borgan yangalar aytilgan:

Qoziqdagi po'stinning,

Yengi yirtiq, yor-yor.
Kuyov pochcham yangasining,
Labi tirtiq, yor-yor

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Bir bog' poxol, yor-yor.
Kuyov pochchang so'rasangiz,
Paxmoq soqol yor-yor.

Lapar. Nikoh to'ylarida qizning uyida o'tkaziladigan “qiz bazmi”, “Qizlar majlisi”, “Qiz oshi”, “Lapar kechasi” deb ataladigan bazmlarda aytiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf bo'lib kuylashadi. Odatda qizning otasi to'yga atab ikki-uch juft kovush olib qo'yadi. Lapar aytuvchi lovushning bir poyini ushlab turib, lapar boshlaydi va qizlar to'dasidagi laparchi qizga uzatadi. Ular ham o'z navbatida javob tariqasida o'z munosabatlarini izhor etib kuylashgan.

O'lan. Nikoh to'ylari, ba'zan bayram kunlari ayrim yig'inlarda cholg'usiz aytilgan. Ko'proq chorvadorlar, dehqonlar orasida tarqalgan. Cho'pon yig'ish bilan Cho'pon qiz sevgi dardlarini bahslashib, so'zamollikda, chechanlikda birlarini sinagandan tarzda kuylashadi.

Masalan:

Yigit: O'yna turib deganda, o'yna turib,
O'rtanaman, kuyaman, seni ko'rib.
O'rtanganda, kuyganda seni ko'rib,
Ermaklasan, kulasan, labing burib.

Qiz: Qo'limda bir uzugim chumdonga bos,
Oshiq bo'lsang, oyog'ing mardona bos.
Oshiqlik qiz-yigitning ishi ekan,
Oshiqlikka teng kelmas zari olmos.

Kelin salom. Kelinchak tushgach yertasi kuni kuyovning qarindosh urug'lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki bet ochar qo'shiqlari aytiladi. An'anaga ko'ra kayvoni kelinni uydan olib chiqa boshlaganda aytiladi. Uy egalari va marosimda hozir bo'lganlar "Alik salom" deb javob qaytarib turishadi. Buxoro, Samarqand viloyatlarida an'anaviy "Salomnomalar" kelin salomda kayvoni kuyovga qaynota, qaynona hamda tog'alari, ammalari, xolalariga salom berganda, ta'rif-tavsiflar orasida hazilnoma so'zlari qo'shib marosimga sho'x kayfiyat berishga harakat qiladilar. Ko'p joylarda (Farg'ona, Toshkent, Jizzax, Janubiy Qozog'iston o'zbeklari) kelin salom to'rt satrdan, Surxondaryo-Qashqadaryo ayrim joylarida uch satrda tashkil topadi:

Kayvoni: Bog' orasidan yo'l bergan,
Hamyonidan pul bergan.
Qaynotasiga bir salom.

Ayollar: Alik salom!

Kayvoni: Suv kechgani yeringan,
O'g'il tug'ib kerilgan.
Qaynonasiga bir salom.

Ayollar: Alik salom!

Kayvoni: Ariqdagi zulukday,
Qoshi-ko'zi pilikday.
Qoqib qo'ygan ilikday,
Ovsiniga bir salom.

Ayollar: Alik salom!

Yig'i-yo'qlovlar. Azada ayollar tomonidan yig'lab aytiladigan yo'qlov, bo'zlov qo'shiqlarida marhumning yaxshi sifatleri yo'qlanadi. Yig'ida

boshlovchilar bo'ladi. Ularni go'yanda yoki "yig'ichi" deyishadi. Go'yanda so'zlar ma'lum ohangda kuylab nola qiladi, har bir ikki, to'rt, satrdan to'rtlishdan so'ng ayollar bir ohangda "uv" tortishadi. Ota-ona vafot esa "voy otam", "voy onam", yer yoki xotin vafot esa "voy jo'ram", "voy uyim" deb yig'lash odatga kirgan.

Dod o'limning dastidan, voy otam,
Faryod o'limning dastidan, voy otam
Baland tog'lar past bo'ldimi, voy otam
O'rganingiz rost bo'ldimi, voy otam

Eksa bitmas maydonim, voy jo'ram
Chaqirsam kelmas mehmonim, voy jo'ram
Ot ko'tarmas polvonim, voy jo'ram
Boshimdagi sultonim, voy jo'ram

Mahalliy uslublarga xos namunalarni musiqa darslarida o'rganishda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan folklor-etnografik ansambllari repertuarini ko'zdan kechirish, ular ijrosi musiqa yozuvlarini darsda o'quvchilarga yeshittirish va qisqa o'tkazish yaxshi natija beradi. Biz o'zimizning tajriba-kuzatuvlarimiz davrida bu ish uslubiga ko'p marotaba murojaat qildik va uning samaradorlik natijalariga guvoh bo'ldik.

Hozirgi vaqtda respublikamiz turli viloyatlarida faoliyat yuritayotgan ko'plab folklor-etnografik ansambllar hatto chet ellarda ham xalq hayotini turli ko'rinishlarini ifoda etuvchi repertuari bilan shuhrat qozonib kelmoqda. Ulardan "Nozanin", "Chavki", "Orazibon", "Beshqarsak", "Sarboz", "Boysun", "Omon yor", "Zebomxon", "Gelitan", "ayniqsa mashhur. Surxondaryo viloyatining "Boysun" tumanida tashkil etilgan "Boysun" ansambli 1975-yildayoq Polshada bo'lib o'tgan "Tog'li o'lkalar" 13-xalqaro folklor-etnografik ansambllar festivalida qatnashib, ikkinchi darajali "Kumush boltacha" mukofoto sovrindori

bo'lgan. Ansambl 1978-yilda Sobiq SSSR xalqlari Butunittifoq festivalida shunday tipdagi 47 jamoa o'rtasida 1-o'rinni egalladi, keyinchalik "YUNESKO"ning oltin fondi ro'yxatiga kiritildi. Ansambl repertuaridan biz yuqorida tilga olgan "Xo'p mayda", "Sust xotin", "Yaqqu-yaq", "Cho'p o'yini" "Um-ufu", "Lolagul", "To'ldirma", "Xalinchak", "Turna keldi", "Sovchilar qo'shig'i", "O'tin yorolmaysan" kabi ko'plab aytimlar o'zining milliy kolariti, ritm-uslub, ijro paytidagi kiyim-libos, cholg'u sozlari bilan o'quvchilarda yorqin taasurot qoldirgan.

Xorazm vohasida mahalliy xalqning uzoq o'tmishidan shakllangan mavsum-marosim, mumtoz va maqom ijrochiligi o'zining vokal, etnografik ko'rinishlari ritmikasi, raqsi, ohangi, shevasi, cholg'ulari, kiyim-liboslari bilan yaqqol ajralib turadi. Bu yerda o'z atrofiga xalq orasidan chiqqan ixlosmandlarni uyushtirgan "Orazibon" folklor-etnografik ansamblidir. San'ashunoslik fanining uqtirishicha Xorazmda yalla, duyet, raqslarning yuzga yaqin turi mavjud. Ansambl repertuaridagi "O'ynar", "Nima,nima, nima deysiz?", "Orazibon", "Gulband", "Biylama", "Norim-norim" kabi qo'shiq va raqslar alohida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunonchi "Norim-norim" raqsi faqat Xorazm xalqi orasidagina mashhur bo'lib, u asosan raqqoslar tomonidan ijro etiladi.

Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tuzilgan "Chavki" ansambli qatnashchilari faqat erkaklardan iborat. Ansambl qatnashchilari birora musiqa asbobidan foydalanishmaydi. Ansambl ijrosidagi barcha aytimlar qarsak jo'rligida ijro etiladi:

Olma oqib keladi,

Suvda qalqib keladi.

Qarang bu suluv qizlar,

Qoshin qoqib keladi.

Tilla kamar belimda,

Yonb keldim elingga.

Sen vafodor yor bo'lsang,
Poyonozman yo'linga.

Ansambli repertuaridagi qo'shiq o'yinlarning ohang(usul-ritmi)ga moslab, qarsak, qo'sh qarsak, uch qarsak, besh qarsak, yeti qarsak, to'qqiz qarsakdan foydalaniladi. "Chavki" o'yini ilgari faqat ushbu hududda o'ynalgan.

Farg'onadagi "Omon yor" folklor ansambli xalq qo'shiqlarini mohir ijrochisi Rahima Mazohidova nomi bilan chambarchas bog'liq. Ansambli 1981-yili shu san'atkor rahbarligida tuzilgan. Ansambli ijrosidagi juda ko'plab qo'shiqlar O'zbekiston Radiosida yozib olingan.

Maktab musiqa ta'limida o'quvchilarni mahalliy uslublarga xos namunalar bilan shu orqali o'zbek xalqining nihoyatda boy, turli viloyat, hatto ayrim tumanlardagina xos ijrochilik an'analari uslublari bilan tanishtirib borish, shu orqali ularda milliy xalq musiqasiga chinakam mehr-muhabbat uyg'otishda ta'kidlab o'tilgan hududlarda faoliyat yuritayogan folklor-yetnografik ansambllari tomonidan ijro etilgan asarlarni tinglattirish, video yozuvlarni birgalikda tomosha qilish, so'ngra ular haqida tahlil-suhbatlar o'tkazib borish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

III- BOB: Mahalliy uslublarga xos musiqa vositasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligi.

3.1. Mahalliy uslublarga xos musiqalar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar.

Tadqiqot ustidagi izlanishlarni olib borishda mahalliy uslublarga xos musiqa namunalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish imkonini beruvchi ish shakl va usullarini amaliyotda sinab ko'rish va ularning samaradorlik xususiyatlarini aniqlashga asosiy e'tibor qaratildi. Amaliy mashg'ulotlar tanlangan obektlarda rejali va aniq maqsadga yo'naltirilgan dastur asosida olib borildi. Mashg'ulotlar jarayonida umumta'lim maktablarining asosan 5-7-sinflarida o'quvchilarga beriladigan mahalliy uslublarga xos o'quv materiallari mazmun va mohiyati sinchkovlik bilan o'rganilib chiqildi. Bu jarayondagi kuzatuv va xulosalarimiz shundan iborat bo'ldiki, hozirgi paytda qo'llanilib kelinayotgan "Musiqqa madaniyati" fani bo'yicha 5-7-sinf o'quv dasturi va darsliklarida mahalliy uslublarga xos musiqa folklorini, shuningdek 7-sinf dasturi va darsligidan o'rin olgan "O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari" mavzusiga nihoyatda kam o'quv soatlari ajratilgan. Shunga ko'ra o'quvchilarni mahalliy musiqa uslublariga oid bilim, tushuncha va tasavvurlarini aniqlash maqsadida bir qator maktablarda musiqa o'qituvchilarining darslari kuzatildi. Darslarni kuzatish, dars jarayonida o'quvchilarning mahalliy uslublarga xos musiqa asarlariga qiziqishlari, ulardan qay darajada xabardorligi, yeshitib farqlay olish imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha savol-javoblar, munozaralar o'tkazildi. Bu o'rinda musiqa o'qituvchilariga ham o'quvchilarni mahalliy uslublarga xos xalq musiqa ijodi bilan tanishtirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?, Musiqa madaniyati darsliklarida mahalliy uslublarga tegishli o'quv materiallariga ajratilgan o'quv soatlari hajmi o'quvchilarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish imkonini beradimi, musiqa madaniyati darsligida mahalliy musiqa uslublari, jumladan ularning yetakchi janrlari sozandachilik,

xalfachilik, katta ashula, mavrigi kabi qo'shiqlarning o'rni qay darajada ifodalangan? Mahalliy uslublarga xos musiqa asarlarini o'rganish, ular haqidagi musiqaiy-nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantrishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin? kabi savollar bilan murojaat qildik. Shu tariqa dastlabki anketa-so'rov tajribasi o'tkazildi. Unda umumta'lim maktabining 25 nafar o'quvchisi va 4 ta musiqa o'qituvchisi ishtirok etdi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahlil qilinganda musiqa o'qituvchilarining mahalliy musiqa uslublari, ular vositasida aniqlandi. O'quvchilarning esa mahalliy uslublar, ularni o'xshash va farqli xususiyatlari, nima uchun mahalliy o'quvchilarni yestetik tarbiyalash bo'yicha sayoz tasavvurga yega yekanligi uslublarga bo'linishi, yetakchi janrlari, ijrochilik uslublaridagi o'ziga xos jihatlari, har bir mahalliy uslubga tegishli cholg'u sozlari, kiyimlar, "shevasi"ni anglash, farqlash bo'yicha bilim va tushunchalari nihoyatda qoniqarsizligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot davomida olib borgan kuzatishlarimiz va so'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ldiki, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni mahalliy musiqa uslublariga xos namunalar bilan tanishtirish, shu orqali ularda o'zbek xalq musiqasining nihoyatda boy va rang-barang ko'rinishiga ega ekanligini anglashlariga erishish borasida holatni qoniqarsizligini to'rt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagi o'quvchilarning milliy musiqa, o'zbek xalq musiqa ijodiyoti va mahalliy musiqiy uslublarga mansub musiqa folklorining aynan bir-biriga bog'lab turuvchi o'zak, negizning birligi va ijrochilik an'analari ko'ra ular o'rtasidagi farqli jihatlarni ajrata olmasliklari; Ikkinchi guruhga musiqani idrok etish, qo'shiq kuylay olish, cholg'u asbobida chalish, xalq musiqa ijodiyotiga qiziqishi sust bo'lgan, shu nuqtai nazardan mahalliy uslublarga xos asosiy "xususiyatlar"i farqiga bormaydigan, uchinchi guruhga yesa o'zbek folklor musiqa ijodiyotidagi rang-baranglik, o'ziga xos ko'rinish, (kiyinish, til shevasi, cholg'ular)larni farqlamaslik, to'rtinchi guruhga 4 ta

mahalliy uslubda ham uchraydigan yalla, lapar, doston qo'shiqlarining ijrosi haqida yaxlit bilim va tasavvurga ega emasliklari.

Bularning barchasi umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq musiqa ijodiyoti, shu o'rinda mahalliy musiqiy uslublarga xos bilimlarni o'quvchilar tomonidan puxta va chuqur o'zlashtirilishiga yetarlicha ahamiyat berilayotganligi, bu borada musiqa o'qituvchilarining ham malakaviy tayyorgarliklari talab darajasida emasligidan dalolat berar edi.

Shulardan kelib chiqqan holda tajriba ishlarining ikkinchi shakllantiruvchi bosqichi bo'yicha amaliy ishlarga kirishildi. Bu bosqichda umumta'lim maktablarining 5-7-sinflarida o'quvchilarni mahalliy musiqiy uslublarga xos namunalar bilan tanishtirish, qo'shiqlar eshittirish, ijro qilish, ular haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lish bilan o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali ish shakl, metod va vositalar ishlab chiqildi, ilg'or pedagogik tajribalar umumlashtirildi, dars jarayonida sinab ko'rildi.

Bu jarayonda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratildi:

1. O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari, ularning o'ziga xos ko'rinishi, bo'yoqlari, uslublari, ijrochilik an'analari, yetakchi janrlari bilan o'quvchilarni tanishtirib boorish jarayonida nazariy va amaliy bilimlardan, mavsum, marosim, qo'shiqlari, yalla, lapar, alla, katta ashula, mavrigi, xalfachilik san'ati, doston qo'shiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan imkon qadar o'rinli va unumli foydalanish, har bir aytim, cholg'u musiqasi, xalfachilik va baxshilar ijodiga mansub qo'shiqlarni tanlash, tinglash, ijro etishda ularning axloqiy-estetik tomonlarini e'tiborga olish, ijro uslubi, an'anaviyligi, qanday holatda, kimlar tomonidan, qanday sozlar jo'rligida ijro etilishi, badiiy emotsional ta'sirchanligi, musiqiy ohangdorligi va uning o'quvchilar tomonidan idrok qilinishiga, o'z navbatida bu faoliyatning estetik tarbiya nuqtai-nazaridan qanday ta'sirchanligi kasb etishiga;

2. Musiqa darslarida mavzu doirasidagi darslarni tashkil qilishda uning o'quvchiga ijobiy estetik-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik muhitni

vujudga keltirish, qo'shiq, aytim, cholg'u kuylarini ijro etish, tinglash, ular haqidagi suhbat, hikoya, tushuntirish ishlarida estetik tarbiya qonuniyatlariga amal qilish va musiqa o'qituvchilarida hamda o'quvchilarda o'zbek folklor musiqasi, ularning to'rtta mahalliy uslubga xos namunalarini ijro yeta olish, ular haqida o'z janrlarini tushuntirib bera olish, baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish;

3. Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida xalq baxchilik sa'ati, Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo, Xorazm baxshi-dostonchilik maktablari, ulkan namoyondalari ijodi, doston qo'shiqlarini ijro qilish uslubi, yallachilik, xalfachilik, sozandachilik, katta ashula, mavrigi, qarsak jo'rligida aytiluvchi qo'shiqchilik san'ati haqida o'quvchilarda yetarli nazariy ma'lumotlar berish, ularning musiqiy-nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, estetik did, idrok va orqali milliy qadriyatlarimizni ongli tushunish xislatlarini shakllantirish; Ushbu ishlarni amalga oshirishda ma'ruza, amaliy savol-javob, texnik vositalar yordamida turli mahalliy uslubdagi asarlarni tinglash, bir xil (masalan, lapar, yalla, dostonchilik) janridagi aytimlarni turli uslubdagi ijrolarini tinglash, tahlil qilish, taqqoslash, o'z taasurotlarini so'zlab berish, matnlar mazmunini sharhlash, me'yoriy bayon, kuylab berish kabi usullardan keng foydalanish;

Ushbu faoliyada o'quvchilarni mahalliy uslublarga tegishli namunalar, ular haqidagi bilim va tushunchalar bilan tanishtirish uchun tanlangan usul, shakl, vositalar hamda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi har bir sinf kesimida hisobga olinadi. Mahalliy uslublarga xos musiqiy asarlar vositasida o'quvchilarda estetik madaniyat, badiiy did va milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish, rivojlantirish, yo'naltirish omillaridan keng foydalanildi. Har bir aytimni o'rganish, tinglash, tahlil qilish jarayonida ularning ijro uslubi, ohang rang-barangligi, "shevasi", tarbiyaviy ahamiyatga ye'tibor qaratildi. Bu o'rinda darslarni qiziqarli tashkil qilish, musiqa asboblari, ko'rgazmalilik va texnik vositalardan izchil foydalanildi.

O'z ishimizda Surxondaryo-Qashqadaryo, Samarqand-Buxoro, Farg'ona – Toshkent, Xorazm musiqa uslubiga xos mavsum va marosim, dehqonchilik, chorvachilikka oid aytimlar, lapar, yalla, katta ashula, xalfachilik, dostonchilik qo'shiqlarini o'quvchilar e'tiboriga havola etar ekanmiz, har aytim, cholg'u kuylari, raqslar, mavsum-marosim qo'shiqlarining vujudga kelishi tarixi, qanday urf-odat, marosimlar bilan bog'liqligi, ijro etilishi holati to'g'risida tushunchalarga ahamiyat berildi. Tajribalarda shuningdek turli bayramlar bilan bog'liq tadbirlar va ular bilan bog'liq holda aytladigan qo'shiqlarga (Shodiyona, Dilxiroj, Dorbozi, sunray kuylari, Xorazmcha "Az-az", "Juz bir" kabi) kuylarga alohida e'tibor berildi. Chunki, Navro'z bayramida milliuy folklor-yetnografik ansambllari chiqishiga ustuvor o'rin beriladi. Milliy folklor-etnografik ansambllari repertuardagi asosiy asarlar tegishli hududlarda yashovchi mahalliy aholining turmush tarzini o'zida ifodalovchi, shu madaniy taraqqiyoti rivojlanish jarayonida qaror topganligi bilan xarakterlidir. Biz shuning uchun Navro'z bayramidagi Surxondaryoning "Boysun", Buxoroning "Ey nozanin", Samarqandning Bulung'ur tumanida tashkil yetilgan "Chavki", Urgutning "Besh qarsak", Farg'ona vodiysining "Omon yor" folklor ansambllari chiqishlari aks etgan video konsertlarini namoyish etish, so'ngra ular haqidagi tahliliy suhbatlar o'tkazdik.

Tajriba o'tkaziladigan obektlar (umumiy o'rta ta'lim maktablari)dagi o'quv mashg'ulotlariga taniqli qo'shiqchilar, xonandalar, xalq musiqa ijodiyotidan yaxshi xabardor til-adabiyot o'qituvchilar, shoirlar, bastakorlar va musiqa mutaxassislarini taklif qildik. Xalq ijodiyoti markazi, Samarqand Davlat Universiteti "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi professor-o'qituvchilari, Madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy metodik markazi kabi ijodiy tashkilotlar bilan ijodiy hankorligimiz o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyotining mahalliy uslublariga xos namunalari bilan tanishtirish, shu orqali ularda xalqimizning milliy qadriyatlariga ongli munosabatni tarbiyalashni tashkil etish texnologiyasi tizimida eng samarali ishlardan bo'ldi desak also xato bo'lmaydi.

Shunday qilib, mahalliy musiqiy uslublarga xos musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik madaniyatini hamda shu jarayonda ularda milliy qadriyatlarga hurmat, ularni e'zozlash, to'g'ri tushunish, o'rganish, davom ettirish xislatlarini shakllantirish texnologiyasining komponentlari aniqlandi va ularning samaradorlik xususiyatlari amaliy faoliyatida qo'llab ko'rildi.

Tadqiqotda tarixiy, san'ashunoslikka oid pedagogik, psixologik mazmunida an'anaviylik, ilmiylik, qadimiylilik va zamonaviylik tamoyillari qo'llanishi mahalliy uslublardagi kuy, qo'shiq, aytimlardan estetik tarbiya vositasi sifatida foydalanishning samaradorligini ta'minlaydi.

Shundan so'ng biz o'zimiz qo'llagan ish usullari, shakl, vositalari natijalarini, shu orqali o'quvchilarning mahalliy musiqa uslubiga oid bilim, tushuncha, zarur ko'nikma va malakalarni rivojlanishiga ta'sirini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqdik. Bu mezonlar o'quvchilarning mahalliy musiqa uslubiga namunalar o'rganish orqali ularda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini tajriba kuzatuv ishlari boshlanishi va tugallanishi oralig'idagi sifat o'zgarishlarni belgilash imkoni berdi. Bular:

- o'quvchilarni o'zbek xalqining milliy musiqa merosiga, shu jumladan mahalliy musiqiy uslublarga oid san'at asarlariga munosabatlarida ijobiy o'zgarish bo'lganligi;

- qo'shiq-aytimlar, kuylarni tinglash, ularni mazmun-mohiyatini idrok etish, o'z taasurotlarini ifodalay olishlari;

- mahalliy musiqiy uslublarga tegishli yetakchi janrlarni o'ziga xos jihatlarini, ijro uslubi, holati, xarakterini farqlay olish, ajtrata bilish;

- qo'shiq aytimlar, lapar, yalla, xalfachilik, mavsum-marosim, dostonchilik qo'shiqlarini tinglash, kuylash jarayonida ularni mazmunini tushungan holda baholash, mashhur ijrochilari haqida bilimlari;

- mahalliy musiqa uslublarini o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim o'rin tutuvchi kiyim-liboslarni, til-shevasi, cholg'ulari haqida aniq tasavvurga egaligi, ularni ko'rish, eshitish orqali farqlay olishlari;

3.2. O'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini matematik-statistik tahlili.

O'zbek musiqasining mahalliy uslublariga xos musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish borasidagi tajribalar musiqa darslarida mavzuga oid mashg'ulotlarni o'tishda nazariy va amaliy bilimlardan foydalangan holda ish tutish kutilgan samaraga erishish imkonini berishini ko'rsatdi.

Mahalliy musiqiy uslublarga xos kuy, qo'shiq, aytimlarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash, shu jarayonda ularda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, amaliy tajriba ishlarida qo'llanilgan uslublar vositalar pedagogik ta'limning tarkibiy qismi sifatida qo'llanildi.

Tajriba-sinov jarayonida mahalliy uslublarga mansub mavsum-marosim qo'shiqlari, ommaviy ijro etiladigan lapar, yalla, dostonchilik qo'shiqlaridan iborat repertuar tuzishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida tajriba guruhiga olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarda xalq musiqasiga, uning milliy qadriyatlariga ongli munosabatni shakllantirishda quyidagi tamoyillarga tayanildi:

1. Musiqiy, tarixiy, nazariy va amaliy bilim, tushunchalarni o'quvchilar tomondan ham nazariy, ham amaliy tomondan o'zlashtirilishiga erishish;
2. Mahalliy musiqiy uslublarga xos musiqa asarlarini milliy, ma'naviy mazmuni, janrlari, an'analari, o'ziga xosligi, o'xshahs va farqli jihatlari, ijro va ifoda usullarini badiiy idrok qilinishiga erishish;
3. Maktab madaniy hayotida faol ishtirok etish, turli tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda (ko'rik-tanlovlar, maktabda o'tadigan bayramlar-Mustaqillik bayrami, Yangi yil bayrami, Navro'z bayrami, turli sanalarga bag'ishlangan konsert –tadbirlar

va hokazo) qatnashishda mahalliy musiqiy uslublar ijro namunalaridan keng foydalanish;

4. O'quvchilarni xalq musiqa merosiga qiziqishlarini o'rganib, kuzatib borish, mustaqil o'rganish va kuylashga bo'lgan intilishlarini, faoliyatlarini rag'batlantirish, o'rganganlarini namoyish qilishlariga zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratib berish;
5. Mahalliy joylardagi folklor jamoalari, baxshilar, xalq qo'shiqlarining mohir ijrochilarini o'quvchilar ishtirok etayotgan san'at tadbirlarida faol qatnashishlariga e'tibor qaratish, ular bilan o'quvchi va musiqa o'qituvchilarini norasmiy muloqotlarini tashkil etish;

Xalfachilik san'ati, katta ashula, mavrigi, dostonchilik qo'shiqlari, shuningdek, qo'biz, do'mbira, nay kuylari borasidagi turkum suhbatlar o'quvchilarni mahalliy musiqa uslublariga oid bilim, tushunchalarni kengaytirdi va musiqiy-estetik tarbiyaning muhim qo'shimcha omilini hosil qildi.

Biz xalq musiqa ijodiyotiga, folklor musiqasiga ishtiyoqmand o'quvchilar bilan sinfdan tashqari faoliyatda aham qo'shimcha mashg'ulotlar olib bordik. Ular bilan bu jarayonda olib boriladigan ta'limiy-mashg'ulotlarning o'ziga xos yo'nalishlari belgilab olindi.(1-jadval).

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar yo'nalishlari	
Musiqiy-nazariy, musiqiy-estetik bilimlar	Xalq musiqasiga oid amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish
1. O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari to'g'risida tushunchalar berish	1. Har bir mahalliy uslubga xos ijrolardan namunalar tinglash, o'ziga xos xususiyatlari haqida tahliliy suhbat o'tkazish

2. Halfachilar, yallachilar, katta ashula, mavrigi, dostonchilik qo'shiqlarini ijro usullari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish	2. Halfachilik, yallachilik, katta ashula, mavrigi, baxshi-dostonchilik ijodi namunalarini mohir ijrochilari va ijrolari bilan tanishtirish
3. Ustoz-shogirdlik an'analarini bugungi kundagi ahvoli, xalq musiqasini zamonaviy musiqa janrlarida qo'llanilishi haqida, bu boradagi ijobiy va salbiy ko'rinishlar haqida tushunchalar berish	3. Xalq musiqiy folklorining to'rtta mahalliy uslub bo'yicha eng mashxur baxshi, hofiz sozandalari, eng yaxshi ijro namunalarini o'quvchilarga taqdim etish
4. Folklor aytimlari, lapar, yalla, doston qo'shiqlarining mavzusi, mazmun mohiyati, asosiy g'oyalari va ularning milliy mafkuramiz bilan uyg'unligiga e'tibor qaratish	4. Milliy musiqa namunalarini ijro etish ko'nikmalarini, malakalarini shakllantirish
5. Mahalliy musiqiy uslublarga xos ijod namunalaridagi xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotining o'ziga xos ifodasi, urf-odat, an'analar mazmunini tushuntirish	5. Mashg'ulotlar faoliyatini musiqiy estetik, ma'naviy-axloqiy va o'quvchilarda milliy musiqamizga hurmat, uni o'rganish, targ'ib etishga yo'naltirilgan tarbiyaviy maqsadga qaratish.

Shu tariqa tajriba-sinov ishlari davomida mahalliy musiqiy uslublar mavzusiga tanlangan (tinglash, o'rganish, kuylash uchun tanlangan) repertuarining tarbiyaviy-ta'sirchanlik mazmuniga tayanib, o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlashga kirishdik. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlari olib borilgan sinflar o'quvchilariga ikkinchi marta savolar tarqatildi, savollarni javoblar va amaliy bilimlar maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida

umumlashtirildi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shartli ravishda 3 ta past, o'rta, yuqori daraja bilan belgiladik.

Tajribalar samaradorligini, ularning o'quvchilarni xalq musiqa merosiga, shu jumladan mahalliy musiqa uslublariga oid nazariy va amaliy bilimlarni o'qilashtirish bilan ularni ma'naviy tushunchalari, estetik saviyalari, milliy qadriyatlarimizga munosabatidagi ijobiy o'zgarishlarni aniqlovchi mezonlar asosida baholashga muvaffaq bo'ldik. Bu mezonlar tajriba-kuzatuv ishlari boshlanishi va tugallanishi oralig'ida o'quvchilarning musiqiy estetik dunyoqarashi, milliy-musiqiy qadriyatlarga qiziqishi munosabatida ro'y bergan joriy sifat o'zgarishlarini aniqlash va baholash imkonini berdi.

O'quvchilarning milliy musiqa merosimizga, shu orqali musiqiy qadriyatlarimizga munosabatlaridagi o'zgarishlar: mahalliy uslublarga xos qo'shiq-aytim, kuy, lapar, yalla, mehnat qo'shiqlari, mavsum-marosim aytimlari, katta ashula, mavrigi xalfachilik, baxshi-dostonchilik qo'shiqlarini tinglash, ayrim namunalarni kuylash bilan ularni badiiy idrok etish, o'z estetik kechinmalari, ma'naviy taasurotlarini mahalliy musiqa an'analari bilan bog'lab ifodalay olish darajasi, respublikamizning to'rtta vohasida qaror topgan musiqa uslublarini ularning ijtimoiy turmushiga xos an'analari bilan bog'liq tomonlarini, turli janrlarning o'qiga xos jihatlarini farqlay olish, asarlarida aks etgan (qo'shiq-aytimlar, dostonlar matni) g'oyaviy-badiiy mazmuni milliy istiqloq g'oyalari va tamoyillari bilan bog'lab idrok etish, baholash, to'rt uslubga mansub qo'shiqlarni kuylash, tinglash jarayonida ularning musiqiy tuzilishi (shakli), ijrochilik an'analari va yo'llari, cho'lg'u va raqs jo'rliqi, usuli (ritm-usul), kimlar tomonidan, qanday holatlarda ijro etishi haqida aniq bilim, tushuncha, tasavvurlarni shakllanganlik darajasini aniqlashga harakat qildik.

Quyida tajriba-sinov va nazariy guruhlaridagi tadqiqot natijalarining jadavallada ifodalangan ko'rsatkichlarini keltiramiz.

1-jadval


O'quvchilarning mahalliy musiqiy uslublarga xos musiqa asarlariga qiziqishi va ularda milliy qadriyatlariga ongli munosabat hamda tushunchalarning shakllanganlik darajalari.

Sinflar guruhlar	O'quvchi lar soni	Mahalliy musiqiy an'analarga qiziqish darajalari tavsifi					
		Yuqori		O'rta		Past	
		Sinov boshi	Sinov oxiri	Sinov boshi	Sinov oxiri	Sinov boshi	Sinov oxiri
Tajriba sinovi	90	24.2 %	38.4 %	30.3 %	44.7 %	48.5 %	16.9 %
Nazorat	90	25.4 %	23 %	30.6 %	49 %	44.4 %	28 %

Jadvalda aks etgan qiymatlarni tajriba boshidagi va oxiridagi o'zgarishlarni matematik-statistik jihatda tahlil qilish, ya'ni tajriba boshidagi va oxiridagi o'quvchilarni mahalliy musiqiy uslublar bo'yicha biz kutgan darajada bilim, ko'nikma va malaklari ko'rsatkichlarini taqsimlab xiziqish shuni ko'rsatdiki, tajriba sinflaridagi o'quvchilarning "yuqori" va "yaxshi" deb belgilanga mezonlari bo'yicha musiqiy nazariy bilim, tushuncha, tasavvurlari va milliy musiqiy qadriyatlarga munosabatlari, estetik did, dunyoqarash va nihoyat ma'naviy-estetik tarbiyalanganlik darajalarida ijobiy o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Bu esa bizning aynan tadqiqotni bajarish bo'yicha qo'yilgan maqsadmizni ijobiy yechim topganligini biz qo'llagan ish usul va shakllari, vositalari, ishlab chiqilgan dasturlarimiz, tavsiyalarimizni samaradorlik kasb etganligidan dalolat berar edi. (2-3 diagrammalar).


2-diagramma.

O'quvchilarning musiqiy-nazariy bilim, tushuncha va dunyoqarashlarining tajriba- tadqiqot boshidagi holati.



3-diagramma.

O'quvchilarning musiqiy-nazariy bilim, tushunchalari va dunyoqarashlarining tajriba tadqiqot oxiridagi holati.



Biz o'quvchilarning mahalliy musiqa uslublari bo'icha zarur bilim, tushunchalarini shakllanganlik va milliy qadriyatlarga ongli munosabat hamda ma'naviy-estetik tarbiyalanganlik darajalaridagi o'zgarishlarni ifodalovchi ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilib tegishli xulosalar chiqardik. Bu jadval korinishida quyidagicha bo'ldi.

2-jadval.

O'quvchilarning musiqiy-nazariy bilim, tushunchalari va milliy qadriyatlarga munosabatlaridagi o'zgarishlar

Sinflar	Baholar		
	Past	O'rta	Yuqori
Tajriba-sinov	$n_1 - 16_1$	$n_2 - 44,7$	$n_3 - 38,4$
NAZORAT	$m = 28$	$m - 49$	$m - 23$

Bu jadvalda biz n_1 va m_1 lar orqali tajriba va nazorat guruhlarini (sinflari)ning tajriba –sinov oxiridagi mahalliy musiqa uslublariga qiziqish darajalarini (% hisobida) belgilab oldik. Bundan tashqari biz x_1 va n_1 lar orqali mos ravishda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilab olib, 2-jadval asosida quyidagi 3-tanlanma taqsimot jadvalini tuzib olamiz. (bu yerda $p_1 = n_1/100$ $q_1 = m_1/100$)

3-jadval

O'quvchilarning mahalliy musiqa uslublariga qiziqish va munosabat darajalarini taqsimoti.

TAJRIBA-SINOV GURUHLARI BO'YICHA	NAZORAT GURUHLARI BO'YICHA
$X_1 : 3, 4, 5$	$U_1 : 3, 4, 5$
$P_1 : P_1 = 0,169, P_2 0,44, P_3 = 0,384$	$Q_1 : Q_1 = 0,28; Q_2 = 0,49; Q_3 = 0,23$

Tajriba-sinov guruhlarida olib borilgan ishlar o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilim, tushuncha va dunyoqarashlarida ijobiy o'sish bo'lganligini, ularda milliy qadriyatlarga ongli munosabat, estetik tarbiyalanganlik darajalarining rivojlanishiga olib kelgi. Bunda bu o'sishning nazorat-sinov guruhlaridagi ancha farq qilishi qayd qilindi. F_x va F_p lar orqali taqsimot qonunlarini belgilab olib, asosiy: $H_0: F_x = F_p$ gepotezaga qarama-qarshi muqobil $H_1: F_x \neq F_p$; gepotezani oldinga surdik. Bu gepotezalarni tekshirish maqsadida biz Pirsonning quyidagi ikki tomonlama X^2 statistikasidan foydalandik:

$$X^2 = \sum_{i=1} (n_i - m_i)^2 / n_i - m_i$$

Demak, $X^2 = 6,8 > 5,99 = 1,095$ (2), bu yerda o'z navbatida 95% ishonch bilan H_0 gepotezani rad etib, H_1 gepotezaning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan ishlar tahlili asosida biz tajriba guruhlarida olib borilgan ishlar nazorat guruhlaridagidan samarador ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Buni matematik-statistik ko'rinishlarda aniqlash maqsadida dastlab har ikkala guruhlardagi tanlanma xarakteristikalarini 3-jadval asosida hisoblaymiz.

Nihoyat har ikki guruh uchun muhim tavsiflardan biri variatsiya koeffitsientlarini hisoblaymiz:

$$V_x = S_x / X * 100\% = 0,68 / 4,22 * 100\% = 16,11\%$$

$$V_y = S_y / Y * 100\% = 2,28 / 3,95 * 100\% = 57,67\%$$

Statistikadan ma'lumki, agar variatsiya koeffitsienti qiymati 30% dan oshmasa, o'rtacha arifmetik qiymat noma'lum – nazariy o'rta qiymatni to'g'ri aks ettiradi.

Bunda:

$$V_x = 16,11\% < 30\% < 57,67\% = V_4$$

Shu tariqa tajriba guruhlarida olib borilgan ishlar nazorat guruhlaridagidan samarali ekanligi tasdiqlandi.

Umumiy xulosalar

O'zbek xalq musiqasining mahaliy uslublariga xos musiqiy-nazariy bilim, ko'nikma, malaklarini egallash orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish, shu jarayonda ularning ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik va musiqa madaniyatini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ilmiy tadqiqot ishida o'zbek xalq musiqasining o'ziga xos xususiyatlari, ijrochilik an'analari, turli urf-odat, mavsum, marosim, mehnat jarayoni bilan bog'liq janrlari, namunalari vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Ish mazmunida mahalliy musiqiy uslublarga xos bilim, tushunchalar asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalash, milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish pedagogik muammo ekanligi asoslangan. Ushbu yo'nalish bo'yicha bir qator chet el mamlakatlari va respublika pedagog olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari nazariy jihatdan atroflicha o'rganildi va tahlil etildi. Ularning ijobiy, ilmiy-amaliy ahamiyatiga munosabat bildirilib, o'zbek xalq musiqa folklorlari, ya'ni mahalliy musiqa uslublariga xos namunalarni o'rganish, ular haqidagi eng muhim bilim, tushunchalarni o'zlashtirish asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning mavjud xislati va uni yaxshilash yo'llari yoritib berildi.

O'quvchilarni xalq musiqa ijodiyotining turli yo'nalishlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, musiqiy madaniyatini tarbiyalash orqali ularda axloqiy sifatlarni, estetik did, tasavvuri va idrokini shakllantirish muammolari ilmiy pedagogik jihatdan dalillandi.

2. Ilmiy tadqiqot ishida o'quvchilarni o'zbek xalq musiqa folklori – mahalliy uslublarga xos musiqa orqali milliy ma'naviy tarbiyalash jarayonining pedagogi shart-sharoitlari ko'rsatildi. Unda musiqa madaniyati darslarida lapar, yalla, mavsum-marosim qo'shiqlarini o'rganish, ular haqidagi bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarni mustaqil ravishda ularni o'rganganishga rag'batlantirish, kuylash, tinglashga qiziqish, paydo qilishning ilg'or usullarini

amaliyotda kuylashning metodik tizimi ishlab chiqilgan. O'quvchilarda xalq musiqasiga bo'lgan munosabatlar o'zgarishining psixologik jihatlari tahlil qilingan. Mahalliy musiqiy uslublarga xos folklor vositasida o'quvchilarda milliy g'urur, milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat shakllanishining psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

3. Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarga mahalliy musiqa uslublariga mansub asarlarni o'rgatish jarayonida ishlab chiqilgan dastur va musiqa repertuari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Musiqa darslarida o'quvchilarning o'quv materialini puxta o'zlashtirilishiga imkon beradigan usul, shakl, vositalari ishlab chiqilgan.

4. Tajriba-sinov ishlarida musiqa o'qituvchisining mahalliy uslublarga xos namunalarni ijro etish usullarini bilishi hamda ular vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash darajasi, o'quvchilarga taqdim etilgan xalfachilik, dostonchilik va boshqa janrlardagi qo'shiq-aytimlar mazmuni, o'ziga xosligi, darsda turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalana olish borasida tavsiyalar taqdim etilgan.

Pedagogik tajriba-sinov natijalari matematik usulda tahlil qilingan. Mahalliy-musiqiy uslublarga xos folklor asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagicha tavsiyalarimizni ilgari suramiz:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga xizmat qiladigan mahalliy-musiqiy uslublar ijro uslubi bilan bog'liq metodik qo'llanmalar, dars ishlanmalar, video, audio yozuvlar, fonotekalar yaratish;

2. Mahalliy musiqiy uslublarga xos musiqa asarlarini tinglash, kuylash, tahlil qilishni 1-7 sinflar ta'lim jarayonida izchil tizim asosida amalga oshirish;

3. Musiqa o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etishda mahalliy uslublar bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish;

4. O'quvchilarni mahalliy uslublar bo'yicha musiqa namunalarini farqlash, baho berish, ular haqidagi nazariy, amaliy ijrochilik faoliyatiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini rejali tashkil etish;

5. Xalq musiqa merosi vositalari o'quvchilarni estetik tarbiyalash borasida erishilayotgan yutuqlar, shuningdek, to'plangan pedagogik tajribalarni ommalashtirilishini ta'minlash;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I. Karimov. “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz” –Toshkent, - O'qituvchi, 1999-yil
2. I. Karimov. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2000-yil
3. I. Karimov. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” Toshkent, - “Ma'naviyat”, 2008-yil
4. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent, 1997-yil
5. Umumiy o'rta ta'limning musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. Toshkent, XTV, 1995-yil
6. Umumiy o'rta ta'limning Musiqa fani bo'yicha DTS va o'quv dasturi. Toshkent, “Ta'lim taraqqiyoti”, 6-7—maxsus sonlar, 1999-yil
7. Estetik tarbiya asoslari. N. Kushayev tahriri ostida. Toshkent, “O'qituvchi”, 1987-yil
8. P. Xalabuzar va boshqalar. “Metodika muzikalnogo vospitaniya”, M., “Muzika”, 1990-god
9. A. Hasanov. “Musiqa va tarbiya” , Toshkent, “O'qituvchi”, 1992-yil
10. I. Qudratov. “Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash” Monografiya, Toshkent, “Fan” 2009-yil
11. I. Qudratov, N. Tolliboyev. “Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgatish”, Uslubiy qo'llanma. Toshkent, “Fan”, 2007-yil
12. H. Nurmatov. “Musiqa va estetik madaniyat”, Toshkent, TDPU, 1992-yil
13. Q. Mamirov, S. Begmatov. “Musiqa. 6-sinf uchun darslik” Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi matbaa-nashriyot ijodiy uyi, 2008-yil.
14. O. Ibrohimov, SH. Sadirov. “Musiqa. 7-sinf uchun darslik” , G'ofur G'ulom nomidagi matbaa-nashriyot ijodiy uyi, 2009-yil.

15. O.Matyoqubov. “Og’zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish”, Toshkent, “O’qituvchi”, 1983-yil
16. I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, O’zbekiston Badiiy Adabiyot nashriyoti, 1963-yil
17. S.Yo’ldosheva “Xalq urf-odatlar va an’analar” Toshkent, Ijod dunyosi, 2003-yil
- 18.H. Hamidov “O’zbek an’anaviy qo’shiqchilik madaniyati tarixi” – Toshkent, -O’qituvchi, 1993-yil
19. U.Qoraboyev “O’zbek xalq o’yinlari” –Toshkent, -San’at nashriyoti, 2001-yil
20. E.Fayzullayev “Bo’lajak musiqa o’qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o’zbek mumtoz musiqasidan foydalanish” –Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2008-yil
21. Madrimov B. “Folklor qo’shiqlari estetik tarbiya vositasi” Xalq ta’limi. 2006-yil, 1-son, 49-51-betlar
22. Madrimov B., Rajabova M. “O’quvchilarning milliy ongini shakllantirishda folklor qo’shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati”. Ilmiy konferensiya materiallari. Buxoro, 2006-yil, 72-73-betlar
23. Romanova S.E. “Qoraqalpoq milliy musiqiy an’analar vositasida bo’lajan musiqa o’qituvchilarini ma’naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari”, P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat, -Toshkent, 2005-yil
24. Fayzullayev E.M. “Bo’lajak musiqa o’qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat, -Toshkent, 2010-yil
25. Ahmedov M.M. “Bo’lajak o’qituvchilarni maktab o’quvchilarida musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishga tayyorlash” P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat, -Toshkent, 2011-yil
26. Qudratov I. ‘Talabalarni xalq qo’shiqlari vositasida estetik tarbiyalash” P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat, -Toshkent, 2006-yil

27. I.Jabborov. “O’zbek xalq etnografiyasi”, Toshkent, “O’qituvchi”, 1994-yil
28. Alaviya M., Ro’zimboyev S. “Oq olma, qizil olma”, G’ofur G’ulom nomidagi matbaa-nashriyot ijodiy uyi, 1984-yil.
29. O’zbek xalq qo’shig’i. Tuzuvchi K.Olimboboyeva. –Toshkent, O’zbekiston Davlat nashriyoti, 1955-yil
30. “Shashmaqom”I-IV-tomlar, Yozib oluvchi Y.Rajabiy, -Toshkent, 1966-yil
31. “O’zbek xalq musiqasi” I-III-tomlar, Toshkent, -Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957-yil
- 32.”O’zbek xalq musiqasi” III-V-tomlar, -Toshkent, Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959-yil
33. “O’zbek xalq musiqasi” VII-tom. Xorazm ashulalari. Toshkent, Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960-yil
- 34.Norboyeva F. “Qadriyatlar-milliy ong rivoji omillari” Xalq ta’limi, 2001-yil, 2-son
35. Toshtemirov N.B. “Uzbekskoye pesennoye tvorchestvo Djizakskoy oblasti” Avtoreferat dissertatsii kandidatskoye iskusstvo” Toshkent, 1993-god, 18-st
36. Ro’zimboyev S “Xorazm vohasi o’zbek xalq qo’shiqlarining g’oyaviy badiiy xususiyatlari” F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat, - Toshkent, 1991-yil
37. Begmatov S.M “Farg’ona vodiysi xofizlik an’analari” San’atshunoslik f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya , -Toshkent, 1995-yil,121-bet
38. Abdullayev R.S. “Janr katta ashula i yego nosijeli”, Avtoreferat dissertatsii kandidatskoye iskusstvo, Toshkent, 1982-god, 149-st
- 39.Qobulniyozov SH. “O’zbek xalq folklorlarining rivojlanish yo’llari” Toshkent, Fan, 1969-yil
40. “Ostonasi tillodan” To’y qo’shiqlari, Toshkent, G’ofur G’ulom nomidagi matbaa-nashriyot ijodiy uyi, 1971-yil.
41. Yu. Buluchevskiy, V. Fomin “Kratkiy muzikalniy slovar”, Leningrad, “Muzika”, 1988-god.

M U N D A R I J A:

Kirish.	4-10
I-BOB. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati	
1.1. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya vositasi sifatida	11-20
1.2. Xalq musiqa ijodiyotining mahalliy uslublar sifatidagi tadriji va musiqa ta'limida ularni tadbiq yetish muammolari.	21-30
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.	
II-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.	
2.1. Mahalliy uslublar bo'yicha o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan o'quv materiallar mazmuni.	31-44
2.2. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish shakl va usuli	45-59
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.	
III-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalar vositasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligi.	
3.1. Mahalliy uslublarga xos musiqalar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar.	60-65
3.2. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllanganlik darajasini matematik-statistik taqsim.	66-73
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	74-76 77-79

**Mavzu: Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil qilish
orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish
(7-sinf materiallari asosida)**

R E J A:

Kirish.

I-BOB. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.

1.1. Xalq musiqa ijodiyoti ta'lim tarbiya vositasi sifatida

1.2. O'zbek xalq musiqa ijodiyotining mahalliy uslublar sifatidagi tadriji va musiqa ta'limida ularni tadbiq yetish muammolari.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.

II-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.

2.1. Mahalliy uslublar bo'yicha o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan o'quv materiallar mazmuni.

2.2. Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish shakl va usuli

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.

III-BOB. Mahalliy uslublarga xos musiqalar vositasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligi.

3.1. Mahalliy uslublarga xos musiqalar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar.

3.2. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllanganlik darajasini matematik-statistik taqsim.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.

Umumiy xulosalar va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

27. I.Jabborov. “O’zbek xalq etnografiyasi”, Toshkent, “O’qituvchi”, 1994-yil.
28. Alaviya M., Ro’zimboyev S. “Oq olma, qizil olma”, G’ofur G’ulom nomidagi matbaa-nashriyot ijodiy uyi, 1984-yil.
29. O’zbek xalq qo’shig’i. Tuzuvchi K.Olimboboyeva. –Toshkent, O’zbekiston Davlat nashriyoti, 1955-yil
30. “Shashmaqom”I-IV-tomlar, Yozib oluvchi Y.Rajabiy, -Toshkent, 1966-yil
31. “O’zbek xalq musiqasi” I-III-tomlar, Toshkent, -Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957-yil
- 32.”O’zbek xalq musiqasi” III-V-tomlar, -Toshkent, Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959-yil
33. “O’zbek xalq musiqasi” VII-tom. Xorazm ashulalari. Toshkent, Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960-yil
- 34.Norboyeva F. “Qadriyatlar-milliy ong rivoji omillari” Xalq ta’limi, 2001-yil, 2-son
35. Toshtemirov N.B. “Uzbekskoye pesennoye tvorchestvo Djizakskoy oblasti” Avtoreferat dissertatsii kandidatskoye iskusstvo” Toshkent, 1993-god, 18-st
36. Ro’zimboyev S “Xorazm vohasi o’zbek xalq qo’shiqlarining g’oyaviy badiiy xususiyatlari” F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat, -Toshkent, 1991-yil
37. Begmatov S.M “Farg’ona vodiysi xofizlik an’analari” San’atshunoslik f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya , -Toshkent, 1995-yil,121-bet
38. Abdullayev R.S. “Janr katta ashula i yego nosijeli”, Avtoreferat dissertatsii kandidatskoye iskusstvo, Toshkent, 1982-god, 149-st
- 39.Qobulniyozov SH. “O’zbek xalq folklolarining rivojlanish yo’llari” Toshkent, Fan, 1969-yil

40. “Ostonasi tillodan” To’y qo’shiqlari, Toshkent, G’ofur G’ulom nomidagi matbaa-nashriyot ijodiy uyi, 1971-yil.

41. Yu. Buluchevskiy, V. Fomin “Kratkiy muzikalniy slovar”, Leningrad, “Muzika”, 1988-god.

**A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti “Musiqiy ta’lim”
yo’nalishi magistranti Do’stmuhammedova Gulhayo tomonidan bajarilgan
“Mahalliy uslublarga xos namunalarni tinglash va tahlil qilish orqali
o’quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

Mazkur dissertatsiya ishi hozirgi kunda musiqa pedagogikasi sohasida juda dolzarb bo’lib turgan muammolar sirasiga kiruvchi mavzuni tadqiqiga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

Respublika va viloyatimizda oily ma’lumotli, malakali musiqa o’qituvchilariga ehtiyojini yuqoriligi, umumiy o’rta ta’lim tizimidagi musiqa o’qituvchilarining ko’pchiligi nopedagog mutaxassislar bo’lib, musiqa o’qitish metodikasi va pedagogikasidan yetarli malakaviy tayyorgarlikka ega ekanliklari darslarni ta’lim standarti va o’quv dasturi talablari darajasida o’tilmasligiga asosiy sabab bo’lmoqda. Bu esa ushbu dissertatsiya mavzusiga tegishli bo’lgan o’zbek musiqasining mahalliy uslublariga tegishli darslarni tashkil etish, o’quv materialarini o’quvchilarga har tomonlama puxta va to’liq yetkazish, mahalliy uslublarning o’ziga xos eng muhim xarakterli jihatlari, o’xshash va farqli xususiyatlari, ijrochilik an’analari, uslublarini tahlil qilish, ko’rsatib berish va shu orqali o’quvchilarda milliy musiqa merosimizga ongli munosabatni shakllantirish borasida yetarli samara bermayotganligi kabi holatlarga bevosita dahldor ekanligini asoslash va muammoni ijobiy yechimiga erishish yo’llarini tadqiq etilishi bilan mazkur ishni dolzarb muammoga bag’ishlanganligini tasdiqlaydi.

Dissertant mavzuga doir respublikamizda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarni, ilmiy-uslubiy manbalar, tajribalarni chuqur o'rgangan, mavjud kamchilik va muammolarni ilmiy tahlil qilish orqali o'zbek musiqasining mahalliy uslublari mavzusiga oid darslarni sifat va samaradorligini ta'minlash imkonini beruvchi pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Bu o'rinda dissertant tomonidan tadqiqot maqsadi, vazifalari, to'g'ri belgilangani va ilmiy nuqtai-nazardan maqsadga mos tarzda rejalashtirilganligini alohida ta'kidlash lozim deb o'ylayman.

Dissertatsiya kirish, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat tarkibiy tuzilishda bajarilgan.

Ishning kirish qismida mavzu muammosini asoslanmasini o'z aksini topgan.

Ishning birinchi bobi "Xalq musiqa ijodiyotini ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati" deb nomlanib, uning mazmunida xalq musiqa ijodiyotining yosh avlodni milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashdagi imkoniyatlari, o'zbek xalq musiqa merosining nihoyatda boy, teran oldizlarga, ko'rinishlarga egaligi, buning misoli sifatida to'rtta mahalliy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari, an'analariga egaligi, ular bilan o'quvchi-yoshlarni har tomonlama tanishtirish orqali ularda milliy ong, milliy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishning keng imkoniyatlari mavjudligi asoslab berilgan.

"Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari" deb nomlangan ikkinchi bobda esa tadqiqot maqsadini amalgam oshirish yo'lida qo'llanilgan va samaradorlikka ega deb ish, shakl, usul, vositalari va dars jarayonida ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish yo'llari bayon qilingan.

Tadqiqotning uchinchi bobi "Mahalliy uslublarga xos musiqalar vositasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligi" deb nomlangan va unda muallif tomonidan

qo'llanilgan pedagogik va metodik texnologik jarayonni samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba sinov ishlari mohiyati va mazmuni o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda qo'llanilgan metodik tizimning samaradorlik kasb etganligi matematik-statistik tahlil orqali isbotlangan.

Chiqarilgan xulosa va ilgari surilgan tavsiyalar ishning ijobiy yechim topganligi va muallifning tadqiqotni bajarish yo'lida qo'yilgan maqsadga to'liq erishganligidan dalolat beradi.

Ishda ayrim o'rinlarda qaytariq fikrlar, mavzuga bevosita dahldor bo'lmagan mulohazalar ko'zga tashlanadi. Agar mahalliy uslublarga xos xususiyatlar, ijrochilik an'analari aniq bir "aytim", namunalar orqali, taqqoslash yo'li bilan tavsiflab berilganda ishning qiymati yanada oshgan bo'lar edi.

Dissertatsiya ishini uni bajarish bo'yicha "Nizom" talablariga mos, mustaqil bajarilgan va tugallangan tadqiqot ishi sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

p.f.n. dotsent I.Qudratov

**A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti “Musiqiy ta’lim”
yo’nalishi magistranti Do’stmuhammedova Gulhayo tomonidan bajarilgan
“Mahalliy uslublarga xos namunalarni tinglash va tahlil qilish orqali
o’quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga**

TAQRIZ

Respublikamizda mustaqil rivojlanish yo’liga o’tilishi bilan milliy ma’naviy tiklanish sari yo’l tutildi. Natijada musiqa ta’limi va tarbiyasi yo’nalishida ham birinchi navbatda yosh avlodni, qolaversa barcha insonlarni asrlar davomida xalqimiz tomonidan yaratilib, e’zozlanib, avloddan avlodga o’tib kelayotgan og’zaki an’anadagi musiqa merosi bilan tanishtirish va shu orqali ularni milliy istiqloq g’oyasi va milliy mafkura g’oyalari ruhida tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berildi.

Do’stmuhammedova Gulhayo tomonidan magistrlik dissertatsiyasi sifatida tadqiq etilgan “Mahalliy uslublarga xos musiqalarni tinglash va tahlil orqali o’quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish”(Yettinchi sinf materiallari asosida) mavzusidagi dissertatsiya ishida milliy musiqa merosimizni asosini tashkil etuvchi mahalliy musiqiy uslublar va ularga oid bilimlarni o’quvchi-yoshlar ma’naviyatiga singdirish, shu orqali milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga hurmat, qiziqish, o’rganish va kelgusida ularga vorislik qila olish tuyg’ularini tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni va mohiyati yoritib berilgan.

Ishning kirish qismida mavzu muammosining musiqa ta'limi va tarbiyasi yo'nalishida bugungi kundagi o'ziga xos dolzarblik kasb etishi ishonchli dalillar bilan asoslab berilgan.

Ishning "Xalq musiqa ijodiyotining ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati" deb nomlangan birinchi bobida umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq musiqa merosi bilan chuqur va har tomonlama tanishtirib borish, bu boradagi yutuq va e'tibor talab jihatlar, o'qituvchilar oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, o'zbek musiqasining mahalliy uslublari, ularning yetakchi janr-ijrochilik an'analari, uslublari tavsifiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ishning ikkinchi bobi "Mahalliy uslublarga xos musiqalarni o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari" deb nomlanib, uning mazmunida musiqa darslarida o'quvchilarni shu mavzudagi bilimlarni egallashlariga erishish bilan cheklanmasdan milliy mahalliy uslublarga mansub musiqa asarlarini tinglash, tahlil qilish orqali ularda xalq musiqasiga barqaror qiziqishni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yilmog'i kerak degan fikr ilgari suriladi va uning milliy musiqiy ta'lim bo'yicha ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Muallif tomonidan tadqiqot maqsadiga erishish imkonini beruvchi ish, shakl, usul vositalari, ularni amalda qo'llash bilan ta'lim sifat-samaradorligini ta'minlashdagi imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari ishning uchinchi bobida o'z ifodasini topgan.

Ish bilan tanishish jarayonida shunday xulosaga keldikki, mazkur tadqiqot ishi, chiqarilgan xulosalar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan musiqa ta'limi va tarbiyasida foydalanish ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Ishda ayrim kamchiliklar ham kuzatildi, bu mahalliy uslublarga xos janrlar, ayrim aytimlarni ijro vaziyatlari, an'analari, uslublari haqidagi tavsiflarni aniq misollarda berilmaganligini va o'quvchilarda milliy qadriyatlarga munosabatni shakllangan darajasini aniqlovchi mezonlarni umumiyroq darajada belgilaganida ko'riladi.

Ushbu kuzatilgan juz'iy kamchiliklar bo'lib, ishning qiymatiga jiddiy putur yetkazmaydi. Dissertatsiyani mustaqil bajarilgan ilmiy ish sifatida ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Dotsent:

Hamroqulov R.